

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JAHON TARIHI KAFEDRASI

**ORTIQOVA DILNOZA ABDUVOHIDOVNA
FARG`ONA VODIYSI O`ZBEKLARINING TABIAT
UNSURLARI BILAN BOG`LIQ QARASHLARI VA
MAROSIMLARI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: oqituvchi,
Xalmuratov Baxtiyor Rejvaliyevich**

Namangan – 2011

KIRISH	
2	
I Bob. Tabiat unsurlariga oid qarashlar va marosimlarning tarixiy ildizlari	11
1.1. Ilk diniy tasavvurlar tizimida olovga bog'liq qarashlarning aks etishi	11
1.2. Dastlabki diniy va dunyoviy tasavvurlarda suv bilan bog'liq qarashlarning namoyon bo'lishi	22
II Bob. An'anaviy turmush tarzi va oilaviy marosimlarda tabiat unsurlariga oid qarashlarning namoyon bo'lishi.....	29
2.1. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining xo'jalik hayoti va moddiy madaniyatida tabiat unsurlarining aks etishi.....	29
2.2. Dunyo xalqlari an'anaviy turmush tarzi va oilaviy marosimlaridagi tabiat unsurlariga oid qarashlarning ekologik xususiyatlari.....	40
XULOSA	48
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....	50

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro munosabatlarda faol ishtirok eta boshladi. O'zbekiston o'zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro foydali va teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada va butun jahon miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash kabi tamoyillarga tayangan holda jahon hamjamiyati safiga dadil kirib kela boshladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari orasida o'zining mustahkam o'rnini egalladi va tashqi siyosatning xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan va jahon hamjamiyatiga asta-sekin integratsiyalashuv strategiyasiga mos keladigan huquqiy tizimini yarata boshladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov: "Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng ko'lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi", - deb ta'kidlagan edi¹.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 279.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o'sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyulda bo'lgan uchrashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o'rganish zarurligi ko'rsatib berildi².

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o'tgan davri mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmoqda"³.

Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixini chuqur o'rganish bilan birga, jahon mamlakatlarning taraqqiyot bosqichlarini o'rganishga, jahon tarixida vatanimiz hududida yashagan xalqlarning ishtirokini o'rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan xamqadam bo'lishimiz shart⁴.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zining ma'naviy va madaniy merosini qayta tiklash baxtiga muyassar bo'ldi. Ko'plab milliy bayramlar, urf-odatlar xalqimizga qaytarib berildi.

Lekin, bugungi kundagi jamiyat hayotini kuzata turib, to'la milliylikka va milliy o'zlikka qaytayapmizmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Yuqoridagi fikrlarni ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lgan tabiat unsurlari va unga doir e'tiqodiy qarashlarda kuzatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch" asarida "CHindan ham, agar odamzod bu dunyoda ruhan pok bo'lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg'oq bo'lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma'nosi qoladi?" – deb ta'kidlab o'tgan⁵.

Darhaqiqat, tabiat unsurlariga oid qadimiy va zamonaviy tushunchalar negizida ruhan poklanish muammosi mujassamlashgan. Bundan uch ming yillar ilgari ham ajdodlarimiz axloqiy tushunchalarining markazida ruhan poklanish muammosi o'rin olgan. CHunki, ruhan poklanish tushunchasi tabiat unsurlariga bo'lgan ijobiy munosabat, ularning ekologik jihatdan tozaligi bilan chambarchas bog'lanaib kelinadi.

Tarixiy manbalar va arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyoga islom kirib kelguniga qadar ajdodlar e'tiqodi, o'lib qayta tiriluvchi tabiat kul'ti, hayvon va jonivorlar kul'ti va agrar kul'tlar, kabi mahalliy kul'tlar bilan birga zardushtiylik, shomoniylilik, buddaviylik, moniylik, nasroniylilik kabi dinlar ham keng tarqalgan⁶. Turli dinlar, e'tiqodlar hamda

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль. таҳдид, тараққитёт шартлари ва барқарорлик кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 279.

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

⁴ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 3.

⁵ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 4.

⁶ Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Мънавият, 2008. – Б. 36.

⁶ Беленицкий А.М. О домусульманских культах Средней Азии // КСИИМК. Вып. XXVIII. –М.: 1949.; Пугаченкова Г.А. О культах Бактрии в свете археологии // ВДИ. – 1974. – № 3. –С. 127–128; Сулейманов Р. Древней Нахшаб. – Ташкент–Самарканд, 1999.

kul'tlarga e'tiqod, shubhasiz Farg'ona vodiysi aholisiga xos xususiyatlardan biri bo'lgan. Mintaqaga islom dini kirib kelganidan keyin ham ushbu e'tiqodlar bilan bog'liq marosim va urf-odatlar xalq hayotidan butkul yo'qolib ketmagan. Aynan mazkur xususiyat, bir tomondan, o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzining tarixiy asoslari va o'ziga xosligini tadqiq etishda muhim ahamiyatga molik. Boshqa tarafdin esa mintaqadagi islom dini mahalliy xususiyatlarni chuqur ilmiy asosli tarzda o'rganish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

Xullas, Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlarni tarixiy-etnologik nuqtai nazardan tadqiq etish, bizningcha, asosan, quyidagi omillarga ko'ra o'ta dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi:

birinchidan, hozirgi davrga qadar nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo etnologiyasida ham mahalliy xalqlar an'anaviy turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlar yaxlit bir ilmiy muammo sifatida etnografik materiallar asosida chuqur, har tomonlama kompleks ravishda tadqiq qilinmagan;

ikkinchidan, o'zbek xalqining islomgacha bo'lgan qarashlari va diniy e'tiqodlarini tarixiy-etnografik jihatdan tadqiq etish orqali biz xalqimizning islomdan oldingi madaniyati, mafkurasi, an'analari va urf-odatlarini haqida birmuncha mufassal tasavvurga ega bo'lamiz. Qolaversa, aynan mazkur mavzuni tadqiq qilish an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq ko'plab urf-odat va marosimlar genezisi hamda mazmun-mohiyatini to'laqonli anglash va tahlil etish imkonini beradi;

uchinchidan, o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlar va marosimlar hamda urf-odatlarini ilmiy asosda tahlil etish mazkur mintaqada yashovchi etnoslarning tashqi olam, koinot, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarining eng qadimgi qatlamlarini aniqlashga, o'zbeklarning qadimgi ajdodlari ilk diniy-e'tiqodiy qarashlari, mafkurasi borasida mushohada yuritishga imkon beradi. Bu esa, mazkur mintaqaning azaliy tub aholisi bo'lgan o'zbek xalqining e'tiqodiy qarashlari, ma'naviyati nechog'lik buyukligi hamda uning jahon tsivilizatsiyasida o'ziga xos o'rniga egaligini yana bir bor tasdiqlashi shubhasizdir;

to'rtinchidan, mazkur muammoni etnologik jihatdan tadqiq etish o'zbek xalqi turmush tarzida tabiat unsurlari oid qarashlarning tutgan o'zni, o'ziga xos xususiyatlarini birmuncha to'laqonli anglash imkonini yaratadi. Binobarin, etnolog olimlar ilmiy tadqiqotlaridan farqli tarzda ilmiy izlanishlarda mahalliy aholi turmush tarzi, e'tiqodiga oid yig'ilgan dala etnografik materiallarini arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar bilan o'zaro qiyoslash, o'rganish orqali islomning o'ziga xos lokal xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida o'zbek xalqi diniy qarashlari, etnomilliy madaniyati va qadriyatlarining o'ziga xosligini keng jamoatchilikka etkazishda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi;

beshinchidan, o'zbek xalqi turmush tarzi bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarini ilmiy tahlil etish uning etnomilliy psixologiyasi va lokal mahalliy madaniyati borasidagi bilimlarni boyitishga xizmat qiladi. SHuningdek, ushbu mavzuni tadqiq qilish o'zbek xalqi an'anaviy hayot tarzi va diniy e'tiqodlar tizimida tabiat unsurlari oid qarashlarning tutgan o'zni va ahamiyatini hamda uning tarixiy asoslarini etnologiyaning yangicha nazariy-metodologik kontseptsiyalari asosida o'rganishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi. Tabiat unsurlari oid qarashlarni va ularning turli xalqlar an'anaviy turmush tarzidagi izlari muammosi dunyo miqyosida tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilgan dolzarb mavzulardan biri bo'lgan. O'tgan davr mobaynida ushbu muhim muammo dunyo xalqlari⁷, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari misolida tarixiy-etnologik aspektida o'rganilgan va bu sohada ma'lum natijalarga erishilgan⁸.

⁷ Тайлор Э. Первобытная культура. – М.: Политиздат, 1989; Фрэзер Дж. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. – М.: Политиздат, 1986; Токарев С. А. Ранние формы религии. – М.: Политиздат. 1990.

⁸ Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука. 1969; Мирхосилов С. М. К изучению реликтов доисламских верований у узбеков в дореволюционном прошлом. //Этнографическое изучение быта и культуры узбеков.– Т.: 1972.– С. 20–32; Тайжанов К., Исмаилов. Х. Особенности доисламских верований у узбеков– карамуртов. //Древние обряды верования и культуры народов Средней Азии. – М.: Наука, – С. 110–138; Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. – №12. – Б. 19–21; Юқоридаги асар // Сирли олам. – №7–8. – Б. 8–11; Эшонкул. Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.:

Tadqiqotning davriy chegarasi. Mazkur tadqiqot Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlarni tarixiy-etnologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot tabiat unsurlari oid qarashlarning paydo bo'lishi, evolyutsiyasi va ularning islom hukmronligi va zamonaviy globallashuv jarayonlar davri bo'lgan – XXI asrda Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush tarzidagi ko'rinishlarini kompleks tarzda tadqiq qilindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarixiy-etnografik materiallar asosida Farg'ona vodiysida yashovchi o'zbeklar turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlarni etnografik materiallar asosida etnologik aspektda o'rganishdan iborat.

Bu o'rinda tadqiqotchi o'zbeklar an'anaviy turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlarning tavsifi bilan cheklanib qolmay, qadimiy dinlar, mahalliy e'tiqodlar va kul'tlarning mazmun-mohiyati, taraqqiyoti va ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda islom hukmronligi davridagi islomiy an'analar bilan uyg'unlashuvini ilmiy asosda tahlil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Tadqiqot ob'ekti. Farg'ona vodiysi hududida yashovchi o'zbeklar oila-turmush marosimlari, xo'jalik an'analari va moddiy madaniyatida tabiat unsurlari oid qarashlarni sinkretik tarzda saqlanib qolgan ko'rinishlariga doir materiallarni ilmiy tahlil etish tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'rta Osiyo etnologiyasida ilk bor Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush tarzidagi tabiat unsurlari oid qarashlar kompleks tarzda, alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti tarzida o'rganildi va quyidagi ilmiy yangiliklar qo'lga kiritildi:

– Ishda Farg'ona vodiysi o'zbeklarining tabiat unsurlari oid qarashlarini kompleks tarzda tadqiq qilish asnosida tabiat haqidagi ilk tasavvurlarning paydo bo'lish tarixi, shakllanishi, evolyutsiyasi tavsifi hamda ularning o'ziga xos lokal xususiyatlari tahlil qilindi;

– tadqiqotda o'zbek xalqi etnik tarixi, xo'jalik an'analari, oilaviy marosimlari va mifologik dunyoqarashini o'rganish asosida *olov, suv, er, tuproq, havo, daraxt* kabi unsurlar bilan bog'liq tasavvurlar, urf-odatlar aniqlandi va ilmiy iste'molga olib kirildi. Qolaversa, o'zbeklarning totemistik qarashlari asosida nafaqat biror-bir jonzotni ilohiylashtirish, balki inson va tabiat, insoniyat va hayvonot olami o'rtasidagi o'zaro munosabatni, dunyoqarash tizimi mujassamlashganligi etnografik materiallar asosida isbotlab berildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot quyidagi jihatlari bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

- Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan materiallar Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududidagi diniy e'tiqodlardagi tabiat unsurlari oid qarashlar va mafkuraviy tasavvurlarning tarixiy asoslarini o'rganishda hamda din tarixini tarixiy-etnografik materiallar asosida kompleks tarzda tadqiq qilishda yangi yo'nalishga manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek ishda bayon qilingan ilmiy xulosalar va nazariy-metodologik qarashlar ekologiya-ning muammolarini teran anglashda hamda keng ilmiy jamoatchilikka etkazishda muxim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi;

Tadqiqot materiallaridan mintaqa xalqlari etnomadaniyat tarixi ekologik madaniyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar, Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun ekologiya va etnologiya fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda hamda o'zbek xalqi etnografiyasiga oid veb sahifalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba, adabiyotlar, qisqartmalar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 51 betni tashkil etadi.

Насаф, 1999. – 170 б. Аширов А. А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001. – 32 б; Ўша муаллиф: Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 275 б; Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 179 б

I Bob. Tabiat unsurlariga oid qarashlar va marosimlarning tarixiy ildizlari

1.1. Ilk diniy tasavvurlar tizimida olovga bog'liq qarashlarning aks etishi

Olam muqaddas unsurlardan tashkil topgan. Bu unsurlarga olov, temir, daraxt, havo, suv, tuproq kabi elementlar kiradi va ular o'z navbatida dunyo xalqlarining turmush-tarzida muayyan o'rin egallab kelmoqda.

Ilk diniy tasavvurlar va mifologik qarashlar olov faol va nomoddiy unsur sifatida suv va erga qarama-qarshi qo'yib kelingan. Ma'naviy va ilohiy hodisalar ramzi sifatida havo bilan yaqinlashtiriladi. Masalan, Sulaymon ibodatxonasidagi muqaddas so'nmas olov "iloh"ning namoyon bo'lishi sifatida idrok turli personajlarning boshlari uzra tasvirlangan. SHuningdek, adabiyotda ba'zan Allohning g'azabi timsolida talqin etiladi. So'fiylikda esa, o't obrazi shaytoniy va insoniy hirslarni ifodalovchi timsol hisoblanadi⁹. Misr ieroglifikasida olov yuksak mavqe` va hokimiyat to'g'risidagi tasavvurlar bilan qiyoslanib, ma'naviy energiya ramziga aylanadi. SHuningdek, dunyoning ko'pgina etnoslarida olov hayot va sog'lik tushunchalari bilan bog'lanadi.

Olovni muqaddaslashtirish mo'jizali jihatlari bilan bog'liq: o'simliklarni yo'q qilib, ularni erni o'g'itlaydigan moddaga aylantiriladi. Tunni yoritadi, yovvoyi hayvonlar va kasalliklar qo'zg'atuvchi hasharotlarni haydaydi. Olov shaxslantirgan, jonlantirilgan tirik kuch hisoblanadi: u shiddat bilan harakat qiladi, barcha tirik narsani yutib, ochligicha qoladi. U oziqlanadi va o'sib, ulkan alangaga aylanadi; qizil tusda bo'lgani sababli inson qoniga o'xshatiladi; olovning issiqligi inson tanasining haroratiga o'xshaydi.

Olov kelib chiqishi bo'yicha ham samoviy, ham er bilan bog'liq: u erga chaqmoq bimlan birga tushadi va er ostidagi vulqonlarda yashaydi. Umuman olganda, olov suvga o'xshab ikki turli ramzlarga ega. Olov – dahshatli va xavfli unsur; biroq jilovlangan va insonga xizmat qiladigan o'choq olovi – oilaviy farovonlik va tinchlik ramzi. U poklaydi va himoya qiladi, yomonlikni daf etadi. Olov suvga qarama-qarshi qo'yiladi, biroq u bilan chambarchas bog'langan.

Turkiyshunos olim Murot O'rozning ta'kidlashicha, shomonlik e'tiqodida besh muqaddas unsur mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lgan: olov, temir, tuproq, suv, daraxt¹⁰. Bu muqaddas unsurlar ichida olov alohida o'ringa ega bo'lib, shomonlik marosimlarida va kundalik hayot tarzida ko'zga tashlanadi.

Olovning yaratilishi haqida turkiylarda quyidagicha tasavvur mavjud bo'lgan: Turkiylarning buyuk tangrisi Ulgen osmondan biri qora, biri oq tosh tushirib, kaftlarida ezgan xas-xashakni bir toshning ustiga qo'yadi, ikkinchisi bilan uradi, chiqqan uchqunlardan xas-xashak yonadi. SHunday qilib, odamlar undan olov yoqishni o'rganadilar. Buni Oltoy shomonlarining: "Issiq olovni yoqib bergan Otam Ulgen" so'zlari ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Sibirda yashovchi yoqutlarning tasavvuriga ko'ra, odamlarga olovni Ulu-To'yun bergan¹¹.

Etnolog olim V. Vasil'ev fikricha, yoqutlar olovdan chiqqan alangalarning ranglariga qarab qiladilar. Bu ta'birlarga ko'ra, olov yashil yonsa– qurg'oqchilik, qizil yonsa – urush, sariq yonsa – notinchlik, kasalliklar bo'lajagiga, qorayib yonsa–hoqonning o'lajagiga ishonardilar¹². Bunda biz olovning turli xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Qirg'izlar etnogenezi va etnik tarixini o'rgangan S. Abramzon ta'biricha, qirg'izlar yillar davomida olovga hurmat bilan qarab kelganlar va yongan olovni o'chirmaslikka harakat qilganlar. Olov agar biror sabab bilan o'chib qolsa, u yangitdan yoqilmagan. Agarda shu holat

⁹ Бу ҳақда қаранг: Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 38; Дырленкова Н. П. Культ огня у алтайцев и телеут // Сб. МАЭ. Т. VI. – Л., 1927; Бутанаев В. Я. Культ огня у хакасов // Этнографические обозрение. – 1998. – № 3. – С. 25–35; Мейтарчиан М. Культ огня в Иране и Средней Азии // Древние цивилизации Евразии. История и культура. Тезисы докладов международной научной конференции. – М.: Наука, 1998. – С. 123.

¹⁰ Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам, 1991. – № 7. – Б. 8.

¹¹ Юкоридаги мақола... – Б. 9.

¹² Васильев В. Н. Шаманский костюм и бубенов у якутов. – СПб., 1910. – С. 17.

yana takrorlansa, olov o'z urug'idan bo'lgan eng yaqin qo'shnidan olingan¹³. Bunda olovning begona urug'dan olinmasligi ichki sabablar bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. SHunga o'xshash olovni e'zozlash udumlari dunyoning ko'pgina xalqlarida ham uchrab turadi. Jumladan, muqaddas olovni begonalardan yashirish qadimgi yunonlar uchun ham xos bo'lgan. YUnonlar olovni begonalarga bermaslik maqsadida uni maxsus joylarda saqlaganlar¹⁴.

Bundan tashqari, yunonlarda olovga nisbatan turlicha qarashlar va urf-odatlar ham saqlanib qolgan. Ularda olov–o'lchov, olamning ob'ektiv qonuni mujassami, barcha ta'limotlarning negizlaridan biri sifatida olov talqin qilinadi. YUnonlarda olovga ega bo'lish insonning tabiat dunyosidan ajralishini anglatgan. SHu munosabat bilan uy o'chog'ining saqlovchisi sifatida ayolga maxsus maqom–xonadon farishtasi maqom berilgan. YUnonlarning ko'pgina an'analarida olov dastlab ajdodlar, qahramonlar va hayvonlar to'g'risidagi asotirlarda shakllanganligi keltirib o'tilgan. Ularda ko'p hollarda olov temirchilik hunari bilan bog'lab kelingan va shunga ko'ra, olovning ixtirochilaridan biri sifatida temirchilar xudosi – Gefest hurmat bilan tilga olingan. Gefestga olovni dengiz xudosi Poseydon berganligi asotirlarda qayd etilgan¹⁵.

SHarqiy Afrikaning ibtidoiy jamoa tuzumi uzoq vaqt saqlanib qolmagan qabilalarida qabila sardori taxtga o'tirish marosimi paytida avvalgi olovni o'chirish va yangisini yoqqish davlatning tsikliyangilash ramzi hisoblangan. SHu tariqa yangi davrning boshlanganligini bildirgan. Bundan tashqari, olov yonida yashash va olovdan sakrab o'tish inson imkoniyatlari chegarasidan chiqish timsoli hisoblangan¹⁶.

Olovga nisbatan bo'lgan bunday e'tibor eron mazdakiylarida ham mavjud bo'lgan. Mazdakiylar ham boshqa etnoslar singari olovni muqaddas deb bilganlar. Har oqshom cho'g'ni kul bilan bilan bostirib qo'yganlar, erta tongda yana ardinch (sarv) daraxti shoxi bilan cho'g'ni yangitdan o't oldirganlar, tutayotgan sarv shoxini xonalar bo'ylab aylantirib chiqqanlar. Ularning tasavvuriga ko'ra, buyuk tangri Axuramazda Quyoshda yashaydi, u erdan olov va nur tarqatadi¹⁷.

Mazdakiylar nazarida, o'limni yomon ruhlar yaratgani uchun, o'lik toza hisoblanmaydi, unga kim teginsa, kirlanadi. SHuning uchun marhumning uyida qishda to'qqiz, yozda o'ttiz kun olov yoqilmaydi, kirlatmaslik uchun o'likni olovga tashlamaydilar. YAna mazdakiylar talqiniga ko'ra, Quyoshni Ozar degan bir pari idora qiladi¹⁸.

Mazdakiylikni qabul qilgan va olovga qadimdan hurmat bilan qarab kelgan turklar, eronliklarning muqaddas an'analariga amal qilib, quyosh botgandan so'ng tog'ning tepasida olov yoqqanlar. Uylarda, turli xil jamoat joylarida tinimsiz olov yonar, uni o'chirmaslikka harakat qilganlar.

Qadimgi turklarda islom dini kirib kelgunga qadar shunday bir an'ana bo'lgan: katta o'g'il uylansa, ota o'chog'idan ayrilgan, yangi o'choq qurilgan. Asil o'choq kenja o'g'ilga qolgan, uni "O'zni saqlovchi" deb ataganlar. Kelinlar esa xonadonlarining o'chog'ida sariyog' eritib, qoldig'ini yuzlariga surtganlar. Ular shu tariqa tangri panohida bo'lishni tilaganlar¹⁹.

Bundan tashqari, qadimgi turk hoqonlari o'zining ma'lum bir kunlarida turli xil tadbirlar o'tkazganlar. Bu kunlarda olov yoqilgan, unga hurmat sifatida kuqrbonliklar qilingan, turli xil duolar o'qiganlar. Olovdan chiqqan alangalarning ranglariga qarab kelajak haqida ta'bir qilganlar. Bu qarashlarga ko'ra, olov yashil bo'lsa – qurg'oqchilik, qizil bo'lsa – urush, sariq rangda bo'lsa – notinchlik, kasalliklar bo'lajagiga, qorayib yonsa – hoqonning vafot etishiga ishonganlar²⁰.

¹³ Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко–культурные связи. – Л.: Наука, 1971. – С. 312.

¹⁴ Харузин Н. Этнография и верования. – СПб., 1905. – С. 302.

¹⁵ Бу ҳақда қаранг: Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими.... – Б. 39–40.

¹⁶ Ўша жойда.

¹⁷ Мэри Бойс. Зороаистрийцы.... – С. 144.

¹⁸ Мурот Ўроз. Турки асотирлари // Сирли олам. – 1992. – №7–8. – Б. 8.

¹⁹ Гумилев Л. Н. Древные тюрки. – Л.: Наука, 1972. – С. 175.

²⁰ Мурот Ўроз. Турки асотирлари.... – Б. 9.

Timsolning kosmogonik konnotatsiyasi veda an`anasida namoyon bo`ladi: masalan, Vedalarda aytilishicha: “Qonun va haqiqat” alangalangan issiqlikdan tug`ilgan. Undan tun tug`ilgan, degan tasavvurlar dunyoning ko`pgina xalqlarida saqlanib qolgan²¹.

Borliqning olov tabiati to`g`risidagi umumiy hind-evropa g`oyasi eron asotirlarida ham aks etgan. Jumladan, eronda qadimdan “hamma narsa olovdan tarqalgan” degan qarashlar hozirgacha saqlanib kelmoqda. Dastlab Ater ismli ma`bud bilan bog`langan olovga sig`inish zardushtiylikda mustaqil ma`no kasb etib, uning asosiy unsuriga aylanadi. Zardushtiylar uchun olov – muqaddas unsur, ilohiy adolat mujassami sifatida qabul qilingan.

Olovga sig`inishni Hindistonda parslar (hozirgi zardushtiylar) davom ettirib kelmoqdalar: ularning ibodatxonalarida muqaddas olovning yonib turishiga kohin qarab turadi; yangi ibodatxonalarga olov eski ibodatxonalardan olib o`tiladi; uy o`chog`ining olovi uydan tashqariga olib chiqilmaydi; ertalab oila a`zolari olovga duo o`qishadi va unga sandal yog`ochini “qurbon” qilishadi. Parslar o`likni yondirishmaydi (erga ham ko`mishmaydi), chunki, bunday qilish muqaddas usurni harom qilishi mumkin deb hisoblangan²².

Zardushtiylikning biror-bir marosimi shu e`tiqodning ramzi – olovsiz o`tgan emas. Olov turli ko`rinishlarda: osmon olovi, daraxtga yashiringan olov, otashgohlarda yonib turgan olov, ilohiy olov, chaqmoq olovi va inson tanasiga issiqlik va hayot bag`ishlovchi olov kabi ko`rinishlarda namoyon bo`lgan. YOnib turgan gulxan abadiy hisoblanib, ma`lum bir iloh yoki ota-bobolar ruhiga bag`ishlangan. Ular o`chirilmasdan saqlangan va begonalar hamda g`ayridinlar nazar-nafasidan asralgan. O`choq yoxud otashgohning kuli ham muqaddas hisoblanib, aziz joylarga ko`mib saqlangan. Bundan tashqari, har bir turar joyda shu xonadon chirog`i, uning qo`ri va alangasini doimo yoqib saqlaydigan oilaviy otashgohlar ham bo`lgan. Ular ko`pincha maxsus ajratilgan va pokiza tutilgan xonalarda tashkil etilib, olov maxsus yasalgan o`choq yoki kursi shaklidagi postament (tagkursi) ustida yoqib saqlangan²³.

Poklanish–zardushtiylik dinida axloqiy kategoriyalarning asosi hamda butun koinot hodisalarini qamrab oluvchi tamoyil sifatida ko`zga tashlanadi. Mazkur tushuncha “Avesto”da ikki yo`nalishda, ikki olamga nisbatan idrok qilinadi: birinchisi–zardushtiylar muqaddas deb bilgan er, olov va havoni toza saqlash: ikkinchisi–insonni jismoniy va ma`naviy jihatdan pokdomonlikka da`vat etish. Mazkur ikki falsafiy yo`nalishning pirovard-natijasi insonparvarilk g`oyasiga borib taqaladiki, bu g`oya oradan uch ming yil o`tgan bo`lishiga qaramasdan, hamon o`zining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini yo`qotmay kelmoqda.

Olov bilan poklanish kategoryasi tizmida iloh Axuramazdaning marhamatini ifodalovchi, butun moddiy dunyo va inson faoliyatiga hayot taftini bag`ishlovchi unsur sifatida madh etiladi. “Avesto”da olovni muqaddas hisoblash hatto ayrim olimlarning zardushtiylikni “otashparastlar” deb atashlariga ham sabab bo`lgan²⁴.

Zardushtiylikning bunday talqini haqiqatdan yiroq. CHunki, unday holda zardushtiylarni “erparastlar” yoki “suvparastlar”, deb ham aytish mumkin bo`lib qoladi. Vaholanki, “Avesto”ning turli davrlarida yaratilgan “YAsht”, “Vendidat” qismlarini o`rganish shundan dalolat beradiki, dunyo iloh – olov tomonidan emas, odamlarning pokdomon hayot tarzi uchun iloh Axuramazda tomonidan olov yaratilgan. SHuning uchun to`rtta unsur: er, suv, olov, havoni toza saqlash, poklash zardushtiylik axloqiy qonun-qoidalari, rasm-rusumlarining o`zagini tashkil etadi. Masalan, “Avesto”da yozilishicha, odam yoki it o`ligi olovdan, suvdan o`ttiz qadam narida tozalanishi, poklanishi zarur²⁵. Oradan o`ttiz asr o`tishiga qaramasdan, o`lik yuvilgan suvni hovliga yoki ko`chaga sepib yubormay, mayit poklangan uyning ichidagi maxsus qazilgan chuqurchaga to`kish hamon O`rta Osiyo xalqlari turmush tarzida saqlanib qolgan. Masalan,

²¹ Мифологический словарь. – М.: Наука, 1992. Т. 1. – С. 121.

²² Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 101.

²³ Сулейманов Р. Х., Исхоқов М. М. Заратуштрининг ватани ва яшаган даврига оид мулохозалар ... –Б. 47–48.

²⁴ Бу ҳақда қаранг: Маҳмудова Г. “Авесто”да покланиш мавзуси // Жамият ва бошқарув. – 2010. – №2. – Б. 102.

²⁵ Аширов А. А. «Авесто»дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001. – Б. 14.

Namangan viloyati CHortoq tumani Baliqko'l qishlog'i aholisi o'lik yuvilgan suvni mevali daraxtning tagiga to'kadi²⁶.

“Avesto”ning “Videvdat” qismida tabiat unsurlari orqali poklanish rasm-rusumlari va marosimlari ma'lum bir tizim sifatida bayon qilingan. Unda nima va kimning qaerda, qanday, kim tomonidan poklanishiga oid qonun-qoidalar, poklanish uchun mukofot va imtiyozlar, bu qonun-qoidalarga amal qilinmagan holatlardagi jazolar aniq-ravshan o'z ifodasini topgan²⁷.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, zardushtiylikda poklanish tamoyili narsalarni tashqi jihatdan tozalash bilangina chegaralanib qolmaydi. Unda poklanish barcha narsa va hodisalarga nisbatan ma'naviy-axloqiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Olovga bo'lgan hurmat va e'tibor odatlarining boshqa ba'zi ko'rinishlari O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiy qipchoqlarida xonadon o'chog'i hech qachon o'chirilmagan. Axborotchilarimiz ma'lumotlariga ko'ra, xonadon o'chog'ida olovni kecha-kunduz o'chirmaslik ota-bobolardan qolgan odat bo'lib, ularning tasavvuricha, olovsiz o'choq misoli egasiz, kimsasiz uydur²⁸. O'cho'g'ida doimo olov yongan xonadondagina doimo baraka bo'lgan. O'cho'g'da yonayotgan olovni bulg'amaslik uchun unga iflos narsalarni, hatto iflos o'tinni yoqish ham taqiqlanadi. Iflos o'tin yoqilishidan oldin odatda, quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan²⁹.

Olov yongan o'choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlar tashlash, har xil axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalariga tashlash, harom chiqindilarni o'choq olovida kuydirish gunoh hisoblangan. Vodiyda kul bilan axlatni bir-biriga qo'shish qat'iy taqiqlangan. Bunga sabab, agar axlat bilan kul bir joyga tashlansa, ushbu xonadonning to'y va aza marosimlari bir-biriga qo'shilib ketar ekan³⁰. Motam marosimlarida esa olovni bulg'amaslik uchun uch kungacha xonadon o'chog'ida olov yoqib, ovqat tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyovlarni insu jinlardan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish va safarga ketayotganda xonadon olovidan boshqalarga bermaslik kabi odatlar ham qaysidir ma'noda zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Zardushtiyning eng katta tantanalaridan biri “Sada” bayramidir. Firdavsiyning “SHohnoma” kitobida yozilishicha, “Sada” eron quyosh taqvimining o'n birinchi oyi – baxmaning uchinchi kunida bayram qilingan³¹. Bunda odamlar olov yoqib, qish zahrini dafn etish uchun tutatqichlar tutatadilar, hatto shu kecha olov yoqib alangalatish, shu olovga yovvoyi hayvonlarni tashlash, alanga ichiga parrandalarni uchirib va (olov) atrofida ichimliklar ichib, o'yin-kulgi qilganlar³². Xullas, zardushtiy bayram va marosimlaridan biri “Sada” paytida gulxan yoqish va olov atrofida o'yin-kulgi qilish, eb-ichish bilan birgalikda kelayotgan barcha ziyon, balo-qazolarni bartaraf qilish maqsadida sopol idishlarni erga urib sindirish asosiy odatlardan biri bo'lgan.

Tadqiqot jarayonida Farg'ona vodiysi oila turmush an'analarida ham “Sada” bayramiga o'xshash marosimi kuzatildi. Axborotchilarning ta'kidlashlaricha, XX asr boshlarida vodiy shimolida joylashgan Kosonsoy shahrida safar oyining oxirgi chorshanba kuni “Safar qochti” marosimi o'tkazilgan. “Bu kun mahallalarda katta-katta gulxanlar yoqilgan. Barcha odamlar turli balo-qazolarni dafn etish maqsadida “Alas-alas, barcha balolardan xalos”, deb gulxanlardan sakraganlar va sopol idishlarni erga urib sindirganlar³³. Hozirga paytga kelib bu marosim vodiya o'tkazilmaydi. Faqat qariyalar xotiralaridagina saqlanib qolgan³⁴.

²⁶ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чортоқ тумани Балиққўл қишлоғи. 2011 йил.

²⁷ Авесто. “Видевдат” китоби // М. Исҳоқов таржимаси. – Т., 2007. – Б. 22.

²⁸ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чортоқ тумани Пешқўрғон қишлоғи. 2010 йил.

²⁹ Бу мақсад йўлида ўтинни сув билан тозалаш бевосита Авестода ҳам мавжуд (Вендидот VII, 28–31).

³⁰ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Шўрақўрғон қишлоғи. 2010 йил.

³¹ Фирдавсий. Шохнома. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 724.

³² Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар ... – Б. 275.

³³ Андреев М. С. Поездка в лето 1928 г в Касанский р-н (север Ферганы). // Изв. общ. для изуч. тадж. и иранский народностей за его пределами. –Т.: 1925. –С. 111–112.

³⁴ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Косонсой тумани. 2011 йил.

Dunyodagi boshqa dinlarida boʻlgani kabi shomonlikda ham muqaddas unsurlardan biri – olovga boʻlgan hurmat turli urf-odat va marosimlar orqali namoyon boʻladi. Jumladan, bu dinda olov turli xil koʻrinishlarda: osmon olovi, daraxtga yashiringan oʻt, ilohiy alanga, ibodatxonalarda yoqiladigan otash kabi holatlarda koʻzga tashlanadi.

Ingliz etnolog olimasi Meri Boys fikriga qaraganda, otashparastlar nazarida oʻlimni yomon ruhlar yaratgani uchun oʻlik toza hisoblanmaydi, unga teginsa kirlanadi. SHuning uchun marhumning uyida qishda toʻqqiz, yozda oʻttiz kun olov yoqilmaydi, kirlatmaslik uchun oʻlikni olovga tashlamaydilar³⁵. Bunday koʻrinishlar Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, Fargʻona vodiysi oʻzbeklari turmush-tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiy qipchoqlarida xonadon oʻchogʻi hech qachon oʻchirilmagan. Axborotchilarimiz maʼlumotlariga koʻra, xonadon oʻchogʻida olovni kecha-kunduz oʻchirmaslik ota-bobolardan qolgan odat boʻlib, ularning tasavvuricha, olovsiz oʻchoq misoli egasiz, kimsasiz uydur. Oʻchogʻida doimo olov yongan xonadongina hamma vaqt baraka boʻlgan. Oʻchogʻda yonayotgan olovni bulgʻamaslik uchun unga iflos narsalarni, hatto iflos oʻtinni yoqish ham taʼqiqlanadi. Iflos oʻtin yoqilishidan oldin odatda, quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan³⁶.

Bunga yaqin holatlar forslarda uchraydi. eron mazdakiylari olovni muqaddas deb bilganlar. Har oqshom choʻgʻni kul bilan bostirib qoʻyadilar, saharlab yana sarv daraxti shoxi bilan choʻgʻni yangitdan oʻt oldirardilar, tutayotgan sarv shoxini xonalar boʻylab aylantirib chiqadilar. (Vodiyda isiriq tutatiladi). SHunday qilinsa, xonada mavjud boʻlgan yomon ruhlar uyni tark etar ekan³⁷.

Taniqli olim Vasiliy Anoxinning eʼtirof etishicha, Oltoy shomonlari tangri hisoblangan biror bobo yoki momo ruhiga ham “Oʻt ota”, “Oʻt ona” deb nom qoʻyganlar. Baʼzi bir folbinlarning aytishicha, olovni “Oʻt Ona” yaratgan ekan. Bunda olovni inson olami bilan uygʻunlashganligini kuzatish mumkin³⁸.

Turk tarixchisi Murot Oʻroz taʼbiricha, qadimgi turkiy xalqlarda shunday bir udum mavjud boʻlgan: oilada katta aka uylansa, ota oʻchogʻidan ayriladi. Unga atab yangi oʻchoq quriladi. eski oʻchoq kenja oʻgʻilga qoladi, uni “oʻtni saqlovchi” deb atashadi. Kelinlar esa oʻzlari tushgan uyning oʻchogʻida sariyogʻ eritib, yuqini yuzlariga suradilar, shu tariqa tangri panohida boʻlishini tilaydilar³⁹.

Insoniyat olovni kashf etgandan buyon unga yuksak ixlos bilan qarab keladi. Zero, olov issiqlik va yorugʻlik manbai sifatida muqaddas hisoblangan. Xususan, zardushtiylik ilohlaridan biri Uvrta Vxishta ham otash posboni boʻlgan. Zardushtiylik dinida muqaddas olov va u doimiy ravishda saqlanuvchi otashgoh mavjud edi. Zardushtiyalar tasavvurida katta va kichik fazoviy olovlar hamda ularning zamindagi koʻrinishlari boʻlgan. Jumladan, bu borada quyosh rangi erdagi ibodatxonalarda yonuvchi olov, yulduzlarga esa erdagi eng kichik yonuvchi chiroqchalar hisoblangan inson koʻzlarining charaqlab turishi mos keladi deb taʼkidlangan. Bunday tasavvur qadimgi odamlarning mikro va makro olam toʻgʻrisidagi oʻziga xos izorformizm kontseptsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan⁴⁰.

Darvoqe, arxeologik tadqiqotlarda miloddan avvalgi IV ming yillikda Oʻrta Osiyo zaminida yashagan dehqonchilik qabilalari orasida ham olov kulʼti boʻlganligi tasdiqlangan⁴¹. Olov oʻz shuʼlasi bilan insonga taʼsir etadigan zararli kuchlarni kuydiruvchi, poklovchi va yorugʻlik timsoli sifatida zulmatga qarshi kuch hisoblanganligi bois ajdodlar tomonidan eʼzozlangan. Qolaversa, qadimgi turkiy xalqlar olovni ayol sifatida tasavvur qilganlar va bu muqaddas

³⁵ Boyse M. History of zoroastrianism. Vol. 2. Leiden, 1982. – P. 52.

³⁶ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 70.

³⁷ Boyse M. History of zoroastrianism..Vol 2. Leiden, 1982. – P. 53.

³⁸ Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев. – Л.: Наука, 1924. – С. 12.

³⁹ Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1992. – № 7. – Б. 9.

⁴⁰ Бу тўғрисида батафсилроқ қаранг: Сулейманов Р. Древний Нахшаб ... – С. 234.

⁴¹ Қаранг: Толстов С. П. Древний Хорезм. – М., 1948. – С. 61; Массон В. М. Энеолит в Средней Азии. // Археология СССР. – М., 1982. – С. 44.

ilohani “O`t ona” yoki olov ayol, Umay ena deb ataganlar⁴². Qadimgi davrlarda qabila olovini yoqib turadigan kishi, ya`ni “O`t egasi” vazifasini ayol bajargan⁴³. Olov bilan bog`liq ko`rinishlar oilaviy turmush marosimlarida hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan. U, ayniqsa kelinni olov atrofida aylantirish udumida yaqqol namoyon bo`ladi. Kelinni gulxan atrofida uch marta aylantirish odatida olovning unga hamroh bo`lib kuyov xonadoniga kelgan turli insu jinslardan poklashga qaratilgan afsungarlik ko`rinishi bilan birga olovning issiqligi-yu yorug`ligi muqaddas kuch sifatida kelinga ko`maklashib, unga kuch-qudrat bag`ishlashiga ishonchni ko`rish mumkin.

O`zbek elshunos olimi K. SHoniyozovning yozishicha, qadimda Qovunchi madaniyati (Toshkent viloyatida joylashgan arxeologik yodgorlik) aholisi quyoshga ham sig`inganlar. Bu e`tiqod ibtidoiy davrlarda ham ko`pchilik xalqlarda mavjud bo`lgan. Quldorlik davriga kelib quyoshga sig`inish yangicha tus ola boshlagan. endilikda Quyosh xudosi qabila boshliqlari va quuldorlik davlatining manfaatlari uchun xizmat qilgan⁴⁴.

Quyoshga sig`inish O`rta Osiyoda yashagan sak-massagetlar orasida ham keng tarqalgan. YUnon tarixchisi Gerodot “Massagetlar barcha xudolardan faqat quyoshni tan oladilar” deb yozgan⁴⁵. Massagetlar malikasi To`maris eron podshosi Kir II dan o`ch olish maqsadida massagetlar xudosi “Quyosh” nomini tilga olib qasam ichgan⁴⁶. Sirdaryoning quyi oqimidan topilgan miloddan avvalgi VII –V asrlarga tegishli arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ot anjomlaridagi bezaklarda quyosh shakli mavjud bo`lgan⁴⁷. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, sak-massagetlarning quyoshga sig`inishlari zardushtiylik dinidan oldin vujudga kelgan bo`lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash joizki, qadimgi diniy e`tiqodlarning deyarli barchasida olov bilan tasavvurlar va qarashlar uchrab turadi. Bu tasavvur va qarashlar zamirida olovga bo`lgan hurmat va e`tibor yotadi. Olov nafaqat yorug`lik va issiqlik manbai bo`lib qolmasdan, balki uni yomon ko`zlardan saqlovchi vosita sifatida ham e`zozlanadi. Olov bilan bog`liq urf-odat va marosimlar yoshlarning ekologik madaniyatini shakllanishida muhim rol o`ynaydi.

1.2. Dastlabki diniy va dunyoviy tasavvurlarda suv bilan bog`liq qarashlarning namoyon bo`lishi

Kishilik jamiyati rivojlanishida suv eng zaruriy ehtiyoj manbai sifatida qadrlanib kelingan. Xalqimizda “Suv yo`q joyda – hayot bo`lmaydi” degan fikr bejizga aytilmagan. Bu ayniqsa, O`rta Osiyo, xususan, Farg`ona vodiysining lalmikor sug`orishga asoslangan hududlarida eng asosiy o`rinlardan birini egallab kelgan. Ota-bobolarimiz qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanib kelganligi uchun butun yil davomida yomg`ir yog`ishini intiqlik bilan kutganlar. Ushbu hududlarda yashagan xalqlar bahorning dastlabki kunlaridan boshlab yomg`ir yog`ishini orziqib kutganlar, suvga sig`inib, uni muqaddaslashtirganlar va uni isrof qilmaslik uchun harakat qilganlar.

Suv bilan bog`liq qarashlar juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Magik marosimlar va udumlarning hozirgacha saqlanib qolgan belgilari asosida suv insonni barcha gunohlardan forig` etadigan vosita deb qaralgan. Ibtidoiy odamlar sinov marosimi chog`ida yosh yigitlar suvga sho`ng`ib chiqqandan so`ng barcha gunohlardan xalos bo`lgan pok odamga aylanadi, deb hisoblaganlar. Qadimda odamlar suvni hayot manbai sifatida ulug`lagan holda, dengiz, ko`l va daryoning odamga falokat keltiruvchi qudratidan hayiqib yashaganlar. SHuning uchun ibtidoiy odam tasavvurida olamda suvdan aziz, mo``tabar, o`z navbatida undan dahshatli va qo`rqinchli kuch mavjud bo`lmagan.

⁴² Токарев С. А. Ранние формы религии. –М.: 1964. – С. 256–263; Абрамзон С. М. Киргизы ... – С. 232; Жуковская Н. Л. Очага культ // Религиозные верования: Свод этнографических понятий и терминов. –М.: 1993. – С. 147–148; Кармышева Б. Х., Губаева С. С. Обряды, связанные с рождением и воспитанием детей у каратегинских киргизов ... –С. 151.

⁴³ Басилов В. Н. Тюркоязычных народов мифология // Мифы народов мира. –М.: 1992. Т. 2. –С. 538.

⁴⁴ Шониёзов К. Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.: Фан, 1990. – Б. 113.

⁴⁵ Геродот. История. – Л.: Наука, 1972. – С. 93.

⁴⁶ Бу ҳақда қаранг: Шониёзов К. Ш. Қанғ давлати..... – Б. 113.

⁴⁷ Вишнева О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII –V вв. до н.э. – М.: Наука, 1973. – С. 89–93.

Ibtidoiy odamlarning tasavvuriga ko`ra, suvning muayyan xislatlari uni jonlantirishga olib kelgan. Suv doim harakatda bo`ladi, u yulduzlar nuri ostida o`z rangini o`zgartiradi, issiqlik ta`sirida bug`ga aylanadi, qurib qolgan o`simliklarni tiriltirish xususiyatiga ega. Suvning yana bir eng muhim xususiyati, odamlar va hayvonlarning chanqog`ini qondiradi, bemorlarga shifo va hordiq beradi.

Poklanish va gunohni yuvish vositasi sifatida suv, asosan qurg`oqchil mintaqalarda ma`lum. Bunday hududlarda marosim harakatlari odatda yuvinish yoki suv sepishdan avval bajariladi. Suv vositasida poklanish, vafot etganlar bilan aloqadan keyin taqozo etiladi.

Qadimgi diniy tasavvurlarda ham suv alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki, suv qadimdan tiriklik, hayot davomiyligi timsoli sifatida e`zozlangan. Suvga bo`lgan bunday hurmat va ehtirom ilk diniy qarashlarning deyarli barchasida o`z aksini topgan. Jumladan, zardushtiylikda ham suv muqaddas unsur sanalib, avvalo uning tozaligi borasida qayg`urilgan. “Avesto”da kanal, ariq va hovuzlarni vaqti-vaqti bilan hashar usulida tozalab turish, atroflari pokizaligiga alohida e`tibor berish qayta-qayta uqtirilgan. Ichimlik suvi oqadigan ariqlar, hovuz va quduq labiga, sohiliga faqat ihota butalari o`tqazish tavsiya etilib, mevali daraxtlar o`tqazish qat`iyan man etilgan. Zero, bir dona meva suvga tushib chirisa, yuqumli kasallarni tarqatadigan mikroblar paydo qilishini ajdodlarimiz tajriba orqali anglab olganlar. Suvga tupurish, xas-xashak yoki barglarni tashlash qattiq qoralangan. Hovuz yoki quduqqa o`limtik yoki biron murdor – qo`lansa, iflos narsa tushsa, uni toza suv yoki yomg`ir suvi bila bir necha bor to`ldirib, bo`shatish yo`li bilan qatron qilish tavsiya etilgan. O`shandan keyingina mazkur hovuz yoki quduq suvidan odam va hayvonlar ichishiga ijozat berilgan. Suv manbalari bo`yida yoki atrofida har xil matolarni yuvish, mol boqish, tuya va otlarni bog`lash, tahorat qilishga ruxsat etilmagan⁴⁸.

Zardushtiylik ta`limotida olovdan tashqari suvga nisbatan ham alohida tartib-qoidalar ishlab chiqilgan. Zardushtiyalarda suv muqaddas unsur sanalib, avvalo uning tozaligi borasida qayg`urilgan. Buning uchun suv manbalari – daryolar, ko`llar yoki quduqlar har qanday nopokliklardan qat`iy himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo`lgan qandaydir narsani yuvish lozim bo`lsa, suv maxsus joyga to`plangan, lekin shunda ham nopok narsa to`g`ridan-to`g`ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so`ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan. SHuningdek, yomg`ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va erni “makruh” qilib qo`yish mumkin deyilgan.

Suvni muqaddas sanab uni e`zozlashga oid qarashlar islom dinida ham mavjud. Jumladan, islomda suvni tejab ishlatish, uni ortiqcha isrof qilmaslikka da`vat etiladi. Suvni isrof qilish va bulg`ash og`ir gunoh hisoblangan. “Avesta”da bu borada “Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do`zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiki dardu ozorlaridan mudhishdir”⁴⁹, – deyiladi.

Tadqiqot jarayonida Farg`ona vodiysi aholisi turmush tarzida ham suv o`ziga xos muqaddas unsur sifatida e`zozlanishini kuzatdik. Jumladan, vodiya ham suvni bemavrid isrof qilish, uni bulg`ash, suvga tupurish va nopok iflos narsalarni suvga tashlash qat`iy taqiqlangan bo`lib, bunday ishlarni qilish og`ir gunoh hisoblanadi⁵⁰. Suv keladigan ariqlar, kanallar va zovurlar har yili erta bahorda hashar yo`li bilan tozalanadi. YAngi kAnallar, ariqlar qazish esa eng savobli ishlardan biri bo`lgan.

Suv manbalari – daryolar, ko`llar va quduqlar har qanday nopoklikdan qattiq himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo`lgan qandaydir narsani yuvish kerak bo`lsa, suv maxsus joyga to`plangan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so`ngra yakuniy poklash maqsadida toza suv bilan yuvilgan. SHuningdek, yomg`ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va erni “makruh” qilib qo`-

⁴⁸ Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001. – Б. 17.

⁴⁹ Авесто // А. Маҳкам таржимаси ... – Б. 122.

⁵⁰ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Фарғона тумани Каптархона қишлоғи. 2003 йил.

yish mumkin deyilgan⁵¹. O`z navbatida shuni qayd etish lozimki, dunyoning ko`pgina xalqlarida yomg`ir va qor suvlari jonli suv deb, daryo, ko`l va dengiz suvlari o`lik suv deb hisoblangan⁵².

SHuningdek, O`zbekistonning ko`plab hududlarida erta bahorda dalalarga suv keladigan asosiy ariq va kanallar hashar usulida loyqadan tozalangan⁵³. Mahalliy o`zbeklar ushbu marosim uchun ham pul, bug`doy va oziq-ovqat mahsulotlari to`plab, pulga “jonliq” (buzoq, bo`z biya, oq toychoq, qo`chqor yoki echki) sotib olgan va uni qurbonlik qilgan⁵⁴. O`rta Osiyoning ba`zi bir hududlarida bo`g`izlangan hayvon qoni suvga oqizilgan yoki tanasi ham suvga tashlanib, so`ngra uni suvdan olib chiqilgan. Xorazmda yangi ariq qazilib, u Amudaryoga ulanganda, xonning buyrug`iga ko`ra, mazkur ariqda doimo suv bo`lishini tilab 8-10 ta sigir va ho`kizlar qurbonlik qilib tashlangan. So`ngra dehqonlar suvga tushib bo`g`izlangan hayvonlarni olib chiqishgan va undan turli taomlar tayyorlab shu erning o`zida eyishgan. Bu odat qadimda suv ilohlari uchun odamlarni qurbon qilishning saqlanib qolgan ko`rinishlaridan biri hisoblanadi⁵⁵. Farg`ona vodiysi CHotqol tizmasi yon bag`ridagi Sumsorsoyning ikki qirg`og`ida joylashgan Dam va Kaklikqo`rg`on qishloqlarida ham soydan qishloq ariqlariga suv ochish jarayonida yuqoridagi kabi qurbonlik marosimi o`tkazilgan. Dehqonchilik piri bo`lgan Buvoyi Dehqonga bag`ishlab qo`chqor qurbonlik qilingan⁵⁶. Andijonda agar surunkali yomg`ir yog`masa, qishloq yoki mahalla qabristoniga borib mol so`yilgan. Farg`ona viloyati Farg`ona tumanida dehqonlar o`z ekin maydonlari chetlariga qurbaqalarni tutib kelib osib qo`yganlar. Ular qurbaqa yomg`ir chaqiradi, deb ishonganlar⁵⁷. Hozirda ham vodiya “qurbaqani o`ldirgan odamning to`yida yog`ir yog`adi”, degan tushuncha saqlanib qolgan. Biz bu o`rinda qurbaqaning ma`lum ma`noda, namgarchilik homiysi sifatida namoyon bo`lishini ko`ramiz. O`rta Osiyoda qurbaqaning namgarchilik timsoli bo`lganligini mashhur arxeolog va san`atshunos olim L. Rempel` ham tasdiqlab, “O`rta Osiyo xalqlari san`atida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomg`ir ifodasi, baxt va omad timsoli, bamisoli tumor sifatida foydalanilgan”,– deb yozadi⁵⁸. Darhaqiqat, qadimda qurbaqa obrazi ma`lum ma`noda yomg`ir, namgarchilik ramzi hisoblangan bo`lib, dunyo xalqlarining ko`pchiligida uning yog`ingarchilik bilan bog`liqligi to`g`risida turli talqinlar uchraydi⁵⁹.

Ayrim maqola va o`quv qo`llanmalarda osmon suvlari xudosi Ardvisura Anaxita deb qayd qilingan bo`lsa⁶⁰, S. Tolstov, G. Snesarev, YA. G`ulomov va B. Sarimsoqov kabi olimlarning tadqiqotlarida Ardvisura Anaxitani osmon suvlari bilan emas, balki erdagi oqin suvlar, aniqrog`i, Amudaryo kul`ti bilan bog`lashadiki⁶¹, bu holat O`rta Osiyo xalqlarining juda qadimiy e`tiqodiy qarashlari, urf-odatlarini, marosimlarida suv va suv kul`tlarining tutgan o`rnini anglashda katta ahamiyatga ega.

Dinshunos olim A. Alimuhamedovning qayd etishicha, qadimda Farg`ona vodiysi xalqlari “suv xudosi”ga e`tiqod qilib, uni “Er Xubbi” deb ataganlar. Suv kam bo`lgan yoki suv

⁵¹ Бу ҳақда қаранг: Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001. – Б. 18.

⁵² Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 43.

⁵³ Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа ... – С. 179–180; Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. –Т.: Ўқитувчи, 2003. – Б. 100–101.

⁵⁴ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма ... – С. 238–239; Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа.. –С. 189–190; Древние обряды верования и культы народов Средней Азии ... –С. 57.

⁵⁵ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Т.: 1957. –С. 118–151.

⁵⁶ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Какликўрғон қишлоғи. 2004 йил.

⁵⁷ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Фарғона тумани Каптархона қишлоғи. 2004 йил.

⁵⁸ Ремпель Л.И. Цепь времени вековые образы и и бродячие сюжеты ... –С. 37.

⁵⁹ Халилов Х. М. Историческая общность и национальное своеобразие обрядовой поэзии народов Дагестана и Северного Кавказа // Дагестанский фольклор во взаимосвязи с иноэтническим фольклором. –Махачкала, 1985. –С. 19; Календарные обычаи и обряды народов восточной Азии. Годовой цикл. –М.: 1988. –С. 276.

⁶⁰ Богомоллова Н. Следы древнего культа воды у таджиков // ИООН. – Сталинабад. 1952. – Вып. 2. – С. 120; Беленицкий А. М. О домусульманских культах Средней Азии // Краткое сообщение института истории и материально культуры. – М.: Наука, 1948. – Вып. 8. – С. 81–85.

⁶¹ Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948; Снесарев Г. П. По следам Анахиты // Советская этнография. – 1971. №4. – С. 153–165; Фуломов Я. Хоразмининг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан, 1959. – Б. 30–35; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – Б. 78–79.

toshqinlari vaqtida kishilar suv xudosi sig'inib, unga bag'ishlab turli qurbonliklar qilganlar. Suv toshqinlari hadeb to'xtayvermasa, vahima ostida qolgan aholi suv bo'yiga to'planib, hammalari "to'xtasin" deb dod-faryod solgan. "To'xtasin" degan kishining qo'l-oyoqlarini bog'lab, uni suv bo'linadigan joyga tashlab yuborganlar. Chunki, mahalliy xalq "shunday qilinsa, qonxo'r suv toshqini to'xtaydi, suv xudosi yakka bola qoniga muhtoj bo'ladi" degan ibtidoiy tasavvur mavjud bo'lgan⁶². Bu afsonaviy obraz Xorazmda "Hubbi" nomi bilan mashhur bo'lgan⁶³. Suvni muqaddas sanab, uni e'zozlashga oid qarashlar islom dinida ham mavjud. Jumladan, islomda suvni tejab ishlatishga alohida e'tibor qaratilgan, uni ortiqcha isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan⁶⁴.

Qadimda turkiy xalqlar suvning xaloskorlik va ilohiy qudratiga qattiq ishonganlar. Ular suv insonni har qanday ofat, baxtsizlik, hatto o'limdan ham himoya qiladi, deya tasavvur qilganlar. Qadimgi ota-bobolarimizning dunyoqarashlarida suv – jon, ruh, boqiylik timsoli, abadiy tiriklik ramzi hisoblangan.

Suvga nisbatan bunday ilohiy qarashlar dunyoning boshqa xalqlarida ham uchraydi. Masalan, qadimgi misrliklarning tasavvuriga ko'ra, suvda hayotbaxshlik xislati mavjud bo'ladi – osmon suvlari erni sug'orib, unda hayotning rivojlanishiga imkon yaratadi. Suv tanadagi hayot bag'ishlovchi suyuqliklar (qon va ter) bilan qiyoslanadi; bu tasavvurlarga muvofiq, qadimgi Misrda tugagan "hayot suvlari"ni almashtirish maqsadida mo'miyolangan tanaga suv qo'shilgan. Hindistonda esa suv butun dunyoda yomg'ir, o'simliklar shirasi, qon shaklida aylanib yuruvchi hayot soqchisi sifatida qadrlangan⁶⁵. Qadimgi xitoyliklar esa suvni butun hayotning sarchashmasi deb bilganlar⁶⁶. Umuman olganda, dunyoning ko'pgina xalqlarida olamdagi barcha narsalar suv negizida vujudga kelgan, degan tasavvurlar mavjud bo'lgan⁶⁷.

Qadimdan inson oqmas suvda hayot asarini ko'rmagan, aksincha oqar suv qaynoq hayot timsoli bo'lib kelgan. SHu sababli oqmas suv manbalari sifatida hovuz yoki ko'lmaklar hisoblangan. Vodiyda ko'lmak suv makruh hisoblanib, uni hatto uy hayvonlariga berish va ularni shu suv bilan yuvintirish ham taqiqlangan. Chunki, ko'lmak suv yovuz ruhlar makoni bo'lib, uy hayvonlariga ziyon etkazishi mumkin deb tasavvur qilingan⁶⁸.

V. Basilovning qayd etishicha, Farg'ona vodiysi o'zbeklari tasavvurida suv ham boshqa unsurlar hamda insonlar singari o'z jinsiga ega bo'lgan. Masalan, "oq suv" – erkak suv, "qora suv" esa ayol suv hisoblangan⁶⁹. Suvni ayolga qiyoslash dunyoning boshqa xalqlarida uchraydi. Masalan, qadimgi xitoylar ayolni suvga, ona qornini quduqqa qiyoslaganlar⁷⁰. Farg'ona vodiysi aholisi "oq suv" deb tog'-toshlardan kelgan suvni, "qora suv" deb yomg'ir va qorlarning suvini tushungan⁷¹.

Suvning er yuzida paydo bo'lishi va uning muqaddas unsur sifatida talqin qilinishi qadimgi turkiy xalqlarning diniy qarashlarida ham o'z aksini topgan. etnolog olim L. Potapovning ta'kidlashicha, Oltoy shomonlari suvni olamning yaratilishiga asos bo'lgan unsurlardan biri deb hisoblaydi⁷². L. Potapovning fikrini turkiyshunos olim Murot O'roz ham tasdiqlaydi. Uning fikriga qaraganda, suv turkiylar tasavvuricha, eng qadimiy va muqaddas unsur. Oltoy asotirlariga ko'ra, er yuzida hech narsa yaratilmasdan oldin dastlab "Toloy" degan buyuk suv bilan Qora Xon paydo bo'lgan. Murot O'roz ta'biricha, suvni turklar quvvat va baraka manbai, shuningdek, hayotning davomiyligini ta'minlovchi vosita deb bilganlar⁷³.

⁶² Алимухамедов А. Муқаддас ва қадамгоҳ жойлар ҳамда уларнинг зарарлари. – Т.; 1966. – Б. 5–6.

⁶³ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 32–33.

⁶⁴ Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Аширов А. Ўзбек халқининг .. – Б. 71.

⁶⁵ Бу ҳақда қаранг: Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 42.

⁶⁶ Юқоридаги асар. – Б. 41.

⁶⁷ Вода // Мифы народов мира. – М.: Советская Энциклопедия, 1987. – Т. 1. – С. 240.

⁶⁸ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Қўқон шаҳри Урганжибоғ маҳалласи. 2010 йил.

⁶⁹ Басилов В. Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1992. – С. 28.

⁷⁰ Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими... – Б. 43

⁷¹ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Ўзбекистон тумани Нурсуҳ қишлоғи. 2011 йил.

⁷² Потапов. Л. Алтайский шаманизм. – М.: Наука, 1991. – С. 72.

⁷³ Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам, 1991. – № 7. – Б. 11

II Bob. An`anaviy turmush tarzi va oilaviy marosimlarda tabiat unsurlariga oid qarashlarning namoyon bo`lishi

2.1. Farg`ona vodiysi o`zbeklarining xo`jalik hayoti va moddiy madaniyatida tabiat unsurlarining aks etishi

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bi-*lan* bog`langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, Rivojlanib kelgan. Kshshshar o`z hayotlari davomida ko`plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etadilar.

Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta`minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqa-lari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma`naviy madaniyatda ham, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo`ladi⁷⁴.

Insonning hayot yo`li bilan bog`liq hodda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Oilaviy urf-odat va marosimlarni esa oilaning u yoki bu a`zosi hayotidagi muhim voqealarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarga ajratib ko`rsatish mumkin:

-oilada farzand tug`ilishi va uning tarbiyasi bilan bog`liq bo`lgan urf-odat va marosimlar;

-nikoh-to`y marosimlari;

-oila a`zosini so`nggi yo`lga kuzatish, ya`ni dafn etish va ta`ziya bilan bog`liq urf-odat va marosimlar.

O`rta Osiyo, xususan Farg`ona vodiysi xalqlarining biz o`rganayotgan davrga xos an`anaviy urf-odat va marosimlaridagi umummintaqaviy jihatlar quyidagi uch xususiyatda yorqin namoyon bo`ladi:

birinchidan, barcha mahalliy xalqlarning oila-nikoh munosabatlari va urf-odatlarida jamiyat taraqqiyotining ilk davrlari uchun xos bo`lgan matriarxat va patriarxat tartib qoldiqlari saqlanib qolganligida;

ikkinchidan, etnik mansubligidan qat`i nazar barcha xalqlarning turmush tarzida, xususan oilaviy urf-odat va maro-simlarda qadimiy diniy e`tiqodlar izlari u yoki bu darajada aks etib turishida;

uchinchidan, o`zbek, tojik, qirg`iz, uyg`ur, qoraqalpoq va boshqa maxalliy xalqlar oilaviy marosimlari deyarli bir xil ketma-ketlikda amalga oshirilishida.

SHuni ham ta`kidlash kerakki, yuqorida ko`rsatib o`tilgan umummintaqaviy xususiyatlar ayni vaqtda u yoki bu etnik jamoa xayotida o`ziga xos tarzda namoyon bo`lib, etniklikni ifodalab

⁷⁴ Аширов А. А. Урф-одатлар замиридаги хикмат // Тафаккур. – 2005. – №2. – Б. 47.

turadi. Quyida oilaviy urf-odat va marosimlardagi shunday etnik va umumintaqaviy jihatlar haqida soʻz ketadi.

SHu kunga qadar oila masalalari bilan shugʻullangan tadqiqotchilar oʻzbek, tojik, qirgʻiz, turkman, qoraqalpoq, uygʻur va boshqa shu kabi mahalliy xalqlarning oila-nikoh munosabatlarida va u bilan bogʻliq urf-odat, marosimlarda oʻtgan asrning boshlariga qadar matriarxat va patriarxat tartiblari qoldiqlarining saqlanib qolganligini tasdaqlaydilar. Uzoq oʻtmishga xos boʻlgan bunday jihatlarini oilaning tuzilishidan tortib oilaviy urf-odat, marosimlarda kuzatish mumkin boʻladi.

Qadimdan Oʻrta Osiyo aholisi har bir tabiat unsuriga alohida hurmat bilan qarab kelgan. Bular orasida quyosh, olov, va suv muhim elementlardan biri hisoblangan. Masalan, ayrim oʻzbek urugʻlari (qipchoq, qarluq, naymanlar) XX asr boshlariga qadar oʻtovlarda yashab, uning eshigini quyosh chiqish tomonidan (sharqqa) qaratib qurganlar. Ularning tushunchasiga koʻra, ertalabki quyosh nuri eshikdan tushsa, u bilan (quyosh nuri bilan) birga uyga baraka, omonlik va rizq kiradi, deyiladi⁷⁵. Qurama togʻ etaklarida, Kemeshek soyda oʻtov qurib yashagan qipchoqlar oʻtov ichidagi oʻchoqda (kecha-kunduz) oʻchirmasdan olov yoqqanlar. Taom pishganda oʻtin qalab, olovni baland qilib yoqsalar, boshqa vaqtlarda uni pasaytirib qoʻyganlar. Kechalari esa miltiragan olov chiroq oʻrnida ham xizmat qilgan. Oʻchoqda doimo olovning boʻlishi – bu uyni baxti; olov yoʻqligi esa uyni egasi boʻlmaganligi, baxt-quvonch yoʻqolganligini bildirgan⁷⁶. Oilada biror kishi vafot etsa, bir necha kun uy ichidagi oʻchoqda olov yoqilmagan.

Toshkent vohasi va Fargʻona vodiysida olovning tozalovchi kuchiga ishonish uzoq vaqtlargacha saqlanib qolgan. CHorvadorlar qoʻylarini qishki qoʻtonlardan (qoʻra) chiqarib, yozgi yaylovlarga olib chiqish uchun qoʻy suruvini olov bilan “tozalaganlar”. Buning uchun yogʻochga yogʻlangan lattani oʻrab, ungi mashʼala qilib yondirib, choʻpon qoʻliga tutqazganlar. CHoʻpon mashʼala bilan qoʻra ichiga kirib, qoʻy galalarini oralab, aylanib chiqqan. SHu usul bilan qoʻylarni ziyon keltiruvchi “koʻzga koʻrinmas” kuchlardan tozalab, yozgi yaylovlarga haydalgan. Qoʻylarni, yozgi yaylovdan qishki qoʻtonga kiritish uchun esa qoʻra eshigining oldida ikki erga (bir-biriga 6–7 qadam uzoqlikda) gulxan yoqib, qoʻylarni bir qatorga tizib, olov oraligʻidan haydab, “tozalab”, qoʻraga kirgizilgan⁷⁷.

Jamiyat taraqqiyoti, diniy-falsafiy tafakkur, amaliy va mafkuraviy dunyoqarash rivoji odamlar ongi va tasavvurida axloqiy tushunchalarning turgʻunligiga olib keldi. Bu narsa, ayniqsa, erga boʻlgan munosabatda koʻzga yaqqol tashlanadi. Jumladan, zardushtiyar odam yoki it oʻlib qolgan erni bulgʻamaslik uchun sugʻorishni, ekin ekishni man qilganlar. Faqat bir yildan keyin bu erga biror narsa ekish va sugʻorish mumkin boʻlgan. Bu qoidaga mal qilmaganlar qattiq jazolangan.

Er, suv, daraxt, koʻza, kiyim, yotoq, joy, inson va hokazolarning poklanishidan maqsad – Axuramazda yaratgan barcha moddiy va maʼnaviy dunyoda odamzodning tinch va ezgu hayot kechirishga qaratilgan. Buning uchun zardushtiylikning asosiy axloqiy-falsafiy tamoyili ezgu fikr, ezgu amal birligiga amal qilmoq lozim. Ana shunda “Xonadon ham boʻladi toza; toza boʻlar olov, suv va er; toza erur sigir va daraxt; pokdomondir Axurmazdaga eʼtiqod qilganlar”⁷⁸ iborasi oʻz isbotini topgan boʻladi.

Xalq orasida olov bilan bogʻliq bir qancha boshqa odatlar ham mavjud. Masalan, Fargʻona vodiysining togʻli va togʻoldi hududlarida bozordan sotib olingan qoramolni (koʻpincha sigirni) va otni hovliga olib kirishdan oldin hovlining oʻrtasiga ikki erga katta gulxan yoqilib, uning oʻrtasidan sotib olingan molni etaklab oʻtilgan. SHu bilan orqadan “ergashib” kelgan zarar etkazuvchi gʻoyibona kuchlar (jin, dev va boshqalar) qochirilgan. SHundan soʻng mol va molning egasi hovliga kirgan. Masalan, Namangan viloyati CHortoq tumani Arbagʻish qishlogʻi

⁷⁵ Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Т.: Фан, 1974. – С. 229.

⁷⁶ Юкоридаги асар... – С. 231..

⁷⁷ Шаниязов К. Ш. К этнической истории... – С. 200.

⁷⁸ Авеста. “Закон против дэвов”. Видевдат. – СПб., 2008. – С. 190.

aholisi orasida bozordan yangi sotib olingan hayvonni ustidan olov va isiriq aylantiriladi⁷⁹. Buning negizida uyga kirib kelgan hayvonni turli ins-jinslardan xalos qilish niyati yotadi.

Olov va kulga boʻlgan ilohiy qarashlar vodiy aholisining anʼanaviy marosimlarida ham aks etgan. Misol uchun, Fargʻona viloyatining Dangʻara, Uchkoʻprik, Buvayda tumanlarida bemorga kinna soluvchi ayollar kuldani unumli foydalanadilar. Bemorni davolashdan oldin kosaga kul solinib, orasiga tuz qoʻshib “suqdan va xasdan oʻzi asrasin” deb bemorning boshi va tana qismiga tekkizib, uch marta aylantiriladi.⁸⁰ Bunda kul va tuzning taʼsir kuchini uygʻunlashganligini koʻrish mumkin.

Fargʻona vodiysining ayrim hududlarida qadimda kelinni kuyovnikiga olib kelishda ham eshik oldiga gulxan yoqilib, kelinni minib kelgan oti bilan birga gulxan atrofida aylantirilgan va hovliga kirgacha, kuyov uni dast koʻtarib, otdan tushirib, hovlida oldindan yoqib qoʻyilgan olov atrofida uch marotaba aylantirilib, soʻngra uyga olib kirgan⁸¹.

Vodiyda yangi kelin tushgan xonadonda toʻy kunining ertasiga “yuz ochdi” marosimi oʻtkaziladi. SHu kuni yangi kelinchak xonadon oʻchogʻi yoniga olib kelinib, yoshi ulugʻ momolar yordamida yonayotgan olovga uch marta yogʻ tomgizishadi. Bu odat zamirida oʻchoqning yangi egasi shu kelinchak ekanligi, uning qoʻli doimo yogʻli boʻlishi kabi niyatlar yotadi.

Endi suv bilan bogʻliq qarashlarni Fargʻona vodiysi oʻzbeklarining anʼanaviy urf-odatlaridagi koʻrinishlariga eʼtibor qaratamiz.

Maʼlumki, vodiy aholisi qadimdan suvga alohida hurmat bilan qarab kelgan. Suvni muqaddas sanab, uni eʼzozlashga doir bir qator urf-odatlarini bajarib kelgan. Vodiy aholisi orasida suvni isrof qilish, uni bulgʻash, suvga tupurish va axlat, chiqindilarni tashlash ogʻir gunoh hisoblangan. Suv keladigan tarmoqlar: kanallar, ariqlar va zovurlar erda bahor boshlanishi bilan tozalangan va ariq hamda kanallar boʻylariga daraxt koʻchatlari ekilgan. Vodiy aholisining tasavvuriga koʻra, ana shu ekilgan koʻchatlar keyinchalik ulkan daraxtlarga aylanib, suvda mavjud boʻladigan har qanday yovuz ruhlarni oʻzi bilan olib qolar ekan⁸².

Vodiy aholisining anʼanaviy oila marosimlarida ham suv oʻziga xos oʻringa ega. Masalan, chaqaloqni birinchi marta yuvintirishda maxsus suvdan foydalaniladi. Maxsus suvga tuz, shakar, tanga va eski paxsa devor tuprogʻi solinadi. Soʻngra chaqaloq togʻoraga oʻtqazilib, maxsus tayyorlangan suv uning ustidan avval oʻng tarafidan, soʻngra esa chap tarafidan qirq tomchidan quyilgan. Suvga solingan ashyolar xosiyatiga eʼtibor beriladigan boʻlsa, tuz gigienik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar toshishidan saqlagan; shakar boʻlsa, chaqaloq hayotining dastlabki bosqichlari shirin oʻtishiga yoʻnaltirilgan magik niyatda qoʻshilgan; tanga esa boylik, davlat ramzi boʻlgan; eski devor tuprogʻi tanaga turli oʻsimtalar chiqishini oldini olgan. CHaqaloq marosimiy tarzda choʻmlitirilgandan soʻng hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoq ostiga emas, balki biror-bir mevali daraxt tagiga toʻkilgan⁸³.

Axborotchilarning taʼkidlashicha, nikoh marosimlarida ham suv muhim ahamiyatga ega. Masalan, vodiyni barcha hududlarida nikoh oʻqilayotgan paytda oʻrtaga dasturxon yozilib, non, qand, bir kosada suv qoʻyiladi. Nikohdan soʻng kelin-kuyov dasturxondagi suvdan bir hoʻplamdan ichib, boshqalarga ham beradilar⁸⁴. Darvoqe, bu oʻrinda shuni ham qayd etish lozimki, nikoh marosimida kelin-kuyov oldiga suv qoʻyish odati, nafaqat oʻzbeklar va musulmon aholi orasida, qolaversa, dunyoning boshqa xalqlarida keng tarqalib, tadqiqotchilar bu odatni yoshlarni birlashtirishning ramziy belgisi sifatida talqin qilganlar⁸⁵.

⁷⁹ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чортоқ тумани Арбағиш қишлоғи. 2011 йил.

⁸⁰ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тумор қишлоғи. 2011 йил

⁸¹ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Учқўрғон тумани Қўғай қишлоғи. 2011 йил.

⁸² Дала ёзувлари. Андижон вилояти Балиқчи тумани Шераличек қишлоғи. 2010 йил.

⁸³ Бу ҳақда қаранг: Аширов А. Ўзбек халқининг... – Б. 82.

⁸⁴ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тумор қишлоғи. 2011 йил.

⁸⁵ Кагаров Е. Г. Состав и происхождение свадебного обряда // Труды археологического–этнографического материалов. – Л., 1929. Т. VIII. – С. 182.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarlik unsurlarini uchratamiz. CHunonchi, kuyov tarafidan kelin xonadoniga kelgan mehmonlarga dastlab "shirin suv" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ezgu ish yakuni ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlar turmushi shirin, totli bo'lsin, degan niyatda qilinadi. Aynan fotiha to'yidan boshlab, bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarining qarindoshlariga uchrashib qolmaslikka urinib, ulardan o'zlarini tortib yuradilar. Ushbu odat ibtidoiy jamoa davri nikoh munosabatlari qoldig'idir⁸⁶.

Uyg'urlar ham mintaqaning boshqa xalqlari kabi zardushtiylikda asosiy e'giquod ramzi hisoblangan olovni ziyon-zahmat etkazuvchi yovuz (yomon) ruhlar hamlasidan himoyalaniish vositasi sifatida keng qo'llaganlar. Xususan, ayol homiladorligi va bola tug'ilishi davrida hamda nikoh-to'y marosimlarida bajariladigan juda ko'gshab rasm-rusumlarda bevosita olov bilan bir qator irimlar bajarilgan. Masalan, deyarli barcha etnik jamoalarning nikoh-to'y marosimlarida kelinning kuyov xonadoniga ko'chib o'tishida olov yordamida har ikki yoshning poklanishi va jodudan xalos bo'lish amallariga qat'iy rioya qilingan. Bu azaliy udumga ko'ra, kelin tushgan arava kelin yoki kuyov xonadoni yonida yoqilgan gulxandan bir necha bor (aksariyat hollarda uch marotaba) aylantirib o'tilgan. Ko'plab qishloqlarda kuyov va hatto uning hamrohlari ham yonib turgan gulxan atrofi-dan uch marotaba aylanib o'tganlarki, bu amallar zamirida kelin-kuyovni ta'qib qilgan yovuz ruhlar-ziyonkor kuchlar go'yo ushbu olovda kuyib nobud bo'ladi, degan tushuncha yotadi. Umuman, kelinning kuyovnikiga ko'chib kelishi jarayonida va undan keyingi chilla davrida ham olov har ikki yoshga hamrohlik qilgan⁸⁷. Bundan tashqari, ko'zi yorigan ayol chilla amallariga qat'iy rioya etgani holda xonada tunu kun chiroqni yoqib qo'iish yo'li bilan zarar etkazuvchi ins-jinslardan o'zini va chaqaloqni himoya qilgan.

Namanganliklarda bola tug'ilganiga besh kun bo'lganda maxsus "besh kecha" marosimi o'tkaziladi⁸⁸. Ushbu marosim Konibodom tumani o'zbeklarida "beshmorak" deb ataladi⁸⁹. Bunda bolani ilk bora cho'miltirish uchun maxsus suv tayyorlangan, ya'ni uy issiqligida ilitilgan suvga tuz, shakar, tanga va eski paxsa devor *tuproq'i* solingan. Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxona qishlog'ida esa bolaning boshiga dastlab ona suti surtilib cho'miltirilgan. So'ngra chaqaloq tog'oraga o'tqazilib, maxsus tayyorlangan suv uning ustidan avval o'ng tarafidan so'ngra esa chap tomonidan qirq tomchidan quyilgan. Suvga solingan ashyolar xosiyati masalasiga e'tibor qaratsak, tuz gigienik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar hamda kasalliklarning oldini olishi bilan birga to'kin-sochinlik va rizq-nasiba ramzi bo'lgan⁹⁰; shakar bo'lsa chaqaloq hayotining dastlabki lahzalari shirin o'tishiga yo'naltirilgan magik niyatda qo'shilgan; tanga esa boylik, davlat ramzi bo'lgan; *eski paxsa devor tuprog'i* tanaga turli o'simtalar va tuklar chiqishining oldini olgan. CHaqaloq marosimiy tarzda cho'miltirilgandan so'ng hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoq ostiga emas, balki biror – bir mevali daraxt tagiga to'kilgan. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, chaqaloqni birinchi marta marosimiy cho'miltirish uni nafaqat gigienik jihatdan poklanishini anglatgan, balki ramziy ma'noda uning bir olamdan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni uning «tabiat» olamidani insonlar dunyosiga o'tishini ham anglatgan. Bola marosimiy tarzda cho'miltirilgandan keyingina oilaning rasmiy a'zosi hisoblangan. O'z navbatida shuni ham ta'kidlash lozimki, Xuf vodiysi tojiklarida chaqaloq qirq kunlik bo'lganiga qadar unda bir "hayvon ruhi" bo'ladi va aynan qirqinchi kundan keyin uning o'rnini "inson ruhi" egallaydi degan qarash bo'lgan⁹¹. Umuman olganda, yuqorida ta'kidlangan mulohazalardan shunga amin bo'lish mumkinki, O'rta Osiyoning ko'plab xalqlarida, jumladan, o'zbek xalqi oilaviy marosimlarida ham 40 soni tasodifiy emas. U bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tish davri holatining miqdor-sifat ko'rsatkichini anglatgan. Aynan qirq kundan keyin chaqaloq tabiat olamidani insonlar olamiga o'tgan va ona marosimiy nopoklikdan o'zining

⁸⁶ Қаранг: Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа ... – С. 133.

⁸⁷ Дала ёзувлари. Андижон вилояти Пахтаобод тумани Маданият кишлоғи. 2011 йил.

⁸⁸ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Наманган шаҳри. 2011 йил.

⁸⁹ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чортоқ тумани Ҳазратишоҳ кишлоғи. 2011 йил.

⁹⁰ Бу тўғрисида батафсилроқ қаранг: Троицкая А. Л. Первые сорок дней ребёнка ... – С. 352; Чвырь Л.А. Опыт анализа ... –С. 125.

⁹¹ Андреев М.С. Таджики долины Хуф (Верховье Амударьи). – Сталинабад., 1953. – Вып. 1. – С. 71.

oldingi soflik holatiga qaytgan. Qolaversa, motam marosimlarida aynan qirq kundan so`ng vafot etgan odamning ruhi bu dunyoni butkul tark etar ekan⁹².

Suv va uning ilohiy xususiyatlari vodiy aholisining motam marosimlarida ham ko`zga tashlanadi. Masalan, mayitni yuvishda ishlatilgan suv hovlining chekka joyiga olib borib to`kiladi. Bu suv hech qachon mevali daraxtning tagiga to`kilmagan, chunki suv mevali daraxtning ostiga to`kilsa, uni quritib qo`yadi, degan fikr shakllangan. SHuningdek, vodiyning ayrim o`troq aholisi orasida mayit yuvilgan joyda bir yil mobaynida hech kim yashamasligi kerak, degan tasavvur mavjud bo`lgan. CHunki, bu joy mayitning “yili”ga qadar ruhlarning makoni hisoblangan⁹³. Farg`ona viloyati Farg`ona tumani Kaptarxona qishlog`ida esa mayit yuvilgan erga kosada suv, behi novdasi va bitta chiroq 40 kun mobaynida qo`yiladi. Ko`zadagi suv har kunlik Qur`on tilovatidan so`ng qirq kungacha yangilanib turgan. Suv marhum ruhi ichib turishi uchun qo`yilar ekan⁹⁴. Motam marosimi tarkibiga kiruvchi ushbu odatga o`xshash ko`rinishlarni qadimiy zardo`shtiylik an`analarida ham uchramiz. Zardushtiyalarda jon berayotgan zardushtiyning oldiga muqaddas xaoma to`ldirilgan ko`za qo`yilgan⁹⁵.

O`likni poklash faqat mayitni tozalash emas, bu jarayonda suv ham, odam ham, er ham ishtirok etadi. Binobarin, o`likni yuvish erni, suvni iflos qilmaslik bilan bog`liq. SHuning uchun poklanish murakkab ruhiy, ma`naviy-axloqiy tasavvurlar birligiga aylanadi. Zardushtiyalarning bunday rasm-rusumlari axloqiy tushunchalarning diniy aqidalar bilan chambarchas holda takomil topganidan darak beradi.

Musulmonchilik odatiga ko`ra, marhum dafn etilishdan avval suv bilan yuvib poklanadi. Vodiyning aksariyat erlarida marhumni yuvish mayit yotgan xonaning yuqori qismida, ya`ni odamlar kam boradigan joyda bajarilgan. Erga solingan sholcha yoki palos yig`ishtirib olingan. So`ngra erdan bir-ikki ketmon tuproq olib tashlanib suv tushishi uchun chuqurcha qilingan va uning ustiga taxta tashlangan. Namangan viloyatining CHust va Kosonsoy tumanlarida yashovchi qipchoqlar, Farg`ona viloyati Arabmazor va Bo`ston qishloqlarida taxta o`rniga ko`pincha eshik tabaqasidan foydalanilgan⁹⁶. Farg`onaliklar orasida qo`yilgan taxta ustiga qamishli bo`yra yoki beda to`shalgan. Andijon va Namangan shaharlarida qishda ham taxta ustiga quritilgan beda solingan⁹⁷. etnografik kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa ma`lum bo`ldiki, hozirgi vaqtda vodiyning ko`plab erlarida uyda chuqurcha qilinmasdan yuvishda ishlatiladigan maxsus tog`orachadan foydalandi. Mayitni yuvishda ishlatilgan suv hovlining chekka joyiga olib borib to`kiladi. Bu suv hech qachon mevali daraxtning tagiga to`kilmagan, chunki suv mevali daraxtning ostiga to`kilsa, uni quritib qo`yadi degan fikr shakllangan. YUvish uchun tog`ora, chelak (paqir), cho`mich, maxsus taxta zarur bo`lgan. Kosonsoyda bu anjomlar mahalla, qishloq qabristonida tobut bilan birga saqlanadi⁹⁸.

YUvishda maxsus o`limlik uchun saqlab qo`yilgan qozonda suv isitilgan. Qozon olib qo`yilmagan bo`lsa, xonadondagi kir yuvishda ishlatiladigan qozondan foydalanilgan. Ushbu qozon keyinchalik yuvib, qatron qilingandan keyin xo`jalikda qaytadan ishlatish mumkin bo`lgan. Vodiya mayitni yuvishda ishlatiladigan suvga, behisht hidi keladi, deb rayhon yoki kamyob maxsar gulidan qo`shilgan. CHust tumani Ariqbo`yi qishlog`ida marhum uyda yotgan paytda tagiga beda yoki rayhon to`shalgan⁹⁹. Bu o`rinda suvga rayhon yoki maxsar guli qo`shilishi yoxud uning tagiga rayhon, beda to`shash odatlari qadimiy mahalliy agrar kul`tlar bilan bog`liqdir.

⁹² Фиельструп Ф. А. Из обрядовой жизни киргизов ... – С. 93.

⁹³ Дала ёзувлари. Андижон вилояти Избоскан тумани Овул қишлоғи. 2011 йил.

⁹⁴ Бу ҳақда қаранг: Аширов А. Ўзбек халқининг ... – Б. 121.

⁹⁵ Бу ҳақда қаранг: Аширов А. “Авесто” дан мерос маросимлар ... – Б. 17

⁹⁶ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Косонсой тумани Тергачи қишлоғи. 1999 йил.

⁹⁷ Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы ... –С. 143; Қирғизларда ишлатиладиган беда марҳум ётган ерга солиб қўйилган. Боялиева Т.Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов.. –С. 68.

⁹⁸ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Косонсой тумани. 2011 йил.

⁹⁹ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Ариқбўйи қишлоғи. 2011 йил

Rishton va So`x tojiklarida behi novdasi o`rniga o`lik chakkasiga rayhon taqib qo`yilgan va marhum dafn qilingan kundan keyin mayit yuvilgan joyga murdani yuvishda ishlatilgan ko`zada suv qo`yilgan. Farg`ona viloyati Farg`ona tumani Kaptarxona qishlog`ida esa murda yuvilgan erga kosada suv, behi novdasi va bitta chiroq 40 kun mobaynida qo`yiladi. Ko`zadagi suv har kunlik Qur`on tilovatidan so`ng qirq kungacha yangilanib turilgan. Suv marhum ruhi ichib turishi uchun qo`yilar ekan¹⁰⁰.

Farg`ona vodiysi o`zbeklari an`anaviy turmush tarzida yomg`irga ham ijobiy munosabat mavjud. Masalan, erta bahor paytida yoqqan xosiyatli hisoblanib, uning biror-bir tomchisi ham isrof qilinmasdan, ekin maydonlariga oqqizilgan. CHunki, yomg`ir suvi osmondan tushgani uchun eng toza suvlardan biri hisoblangan va uni ilohiy ne`mat sifatida qadrlangan¹⁰¹.

Vodiy aholisi qishda qor ko`p yoqqan paytda uni eritib, maxsus idishlarga olib qo`ygan. CHunki, qor suvlari shifobaxsh xususiyatga ega bo`lib, yoz mavsumida tomoq va oshqozon og`rishi kabi kasalliklarni davolashda foydalanilgan¹⁰². Farg`ona vodiysi o`zbeklari suvni kuch-qudrat timsoli deb bilganlar, shu bois toza suv ichgan odam kuchga to`lishi mumkin deb hisoblanganlar. Axborotchilarimiz ta`kidlashicha, toza suv doimo insonga ham ruhiy, ham aqliy tetiklik bag`ishlaydi¹⁰³.

Barcha dinlarda va diniy e`tiqodlarda bo`lgani singari shomonlikda ham suv muqaddas unsurlardan biri hisoblangan. Masalan, vodiy shomon-baxshilari bemorlarni davolashda suvdan unumli foydalanadilar. Jumladan, bemor kishi biror-bir narsadan qattiq qo`rqqan bo`lsa, har chorshanba va shanba kunlari erta tongda uning yuziga uch marta kaftda suv uriladi, so`ngra bemorning ko`krak qismi va orqasiga uch tomchi suv tomgiziladi. SHunda bemorga tekkan qo`rquv chiqib ketar ekan. Farg`ona viloyati Uchko`prik tumani Qaqir qishlog`ida yashovchi Muqaddas baxshining fikricha, bu yumushning erta tongda bajarilishiga sabab, bu paytda yovuz ruhlar uyquda bo`lar ekan¹⁰⁴.

Suvning bunday davolash xususiyatiga ega ekanligini fol`klorshunos olim A. Afanas`ev ham tasdiqlaydi. Olim tiriklik suviningdavolashga oid xususiyatlarini yomg`ir suvi bilan izohlaydi: "Bahor yomg`iri hamma dardga davo, kimki unda yuvinsa, kuch, salomatlik va latofatga ega bo`ladi, xastalar shifo topishi uchun yomg`ir suvi dori o`rnida beriladi yoki ularga yomg`irda cho`milish tavsiya etiladi"¹⁰⁵.

Farg`ona viloyati Dang`ara tumani Soyshildir qishlog`ida yashovchi Sumbula baxshi bemor ko`rish jarayonida asosan, tasbeh va suvdan foydalanadi. Sumbula baxshi suvni bemorning yuziga va qorin atrofiga sepadi. SHunda bemordagi barcha qo`rquv va kasalliklar chiqib ketar ekan¹⁰⁶.

Tadqiqotch D. Mingboevaning qayd etishicha, dunyoning ko`pgina xalqlarida suv ma`budlar irodasini o`tkazuvchi, osmon bilan muloqotda vositachi, taqdir jarchisi hisoblanadi. SHu bois turli fol ochish tizimlarida suvda namoyon bo`ladigan timsollarni talqin etishgan. Folbinlar suv yuzasiga qarab, kelajakni, o`tmishni ko`ra oladi deb hisoblangan. Bu qadimiy holat shomonlarning billur sharlar, ya`ni jodu kristallaridan foydalanganini asoslab beradi. Suv yordamida fol ochish va kelajak haqida xabar berish amaliyoti qadimgi Evropa, SHimoliy Afrika, YAqin SHarq, SHarqiy va SHimoliy Osiyo, Polineziyada tarqalgan. Skandinaviya xalqlarida suv taqdir ramzi sifatida qadrlangan¹⁰⁷.

Fol`klorshunos olim F. Go`zalovning ta`biricha, suv homiylari suv parilari bo`ladi. Buloq va hovuzlar har doim parilar yig`iladigan va cho`miladigan joy hisoblanadi. Ularni o`z joyidan qo`zg`atgan yoki xalaqit bergan inson qattiq dardga muhtalo bo`ladi¹⁰⁸.

¹⁰⁰ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Фарғона тумани Каптархона қишлоғи. 2011 йил.

¹⁰¹ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Фурқат тумани Қўқонбой қишлоғи. 2010 йил.

¹⁰² Дала ёзувлари. Наманган вилояти Янгиқўрғон тумани Мамай қишлоғи. 2011 йил

¹⁰³ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Уйчи тумани Файзиобод қишлоғи. 2011 йил.

¹⁰⁴ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Учқўприк тумани Қақир қишлоғи. 2011 йил.

¹⁰⁵ Афанасьев. А. Н. Живая вода и вешее слово. – М.: Наука, 1988. – С. 315.

¹⁰⁶ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Сойшилдир қишлоғи. 2011 йил

¹⁰⁷ Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими... – Б. 43

¹⁰⁸ Гўзалов.Ф. Сувнинг ҳаётбахш сеҳри // Ёшлик, 1990. – № 1. –Б 76

Vodiyda suvning o'ziga xos ruhlari sifatida suv parilari tan olinadi. Axborotchilarning e'tirof etishicha, suv parilari – suv to'lqinlarida bo'lib, suvni jilovlantiradilar. Kishining diqqatini o'ziga tortib, ko'pincha suvga tushgan begunohlarni cho'kib ketishdan saqlaydilar. Ular faqat suvga cho'kkan kishilargagina ko'rinishi mumkin ekan. Suv parilari juda chiroyli bo'lib, tashqi go'zalligi bilan kishini o'ziga rom qilib olish qudratiga ega bo'lar ekan. SHuning uchun shomdan keyin biror-bir odamning suv havzalarida cho'milishi ta'qiqlanadi¹⁰⁹.

CHust tojiklarida behi novdasi o'rniga o'lik chakkasiga rayhon taqib qo'yilgan va marhum dafn qilingan kundan keyin mayit yuvilgan joyga murdani yuvishda ishlatilgan ko'zada suv qo'yilgan. Namangan viloyati CHortoq tumani Hazratishoh qishlog'ida esa murda yuvilgan erga kosada suv, behi novdasi va bitta chiroq 40 kun mobaynida qo'yiladi. Ko'zadagi suv har kunlik Qur'on tilovatidan so'ng qirq kungacha yangilanib turilgan. Suv marhum ruhi ichib turishi uchun qo'yilar ekan¹¹⁰.

2.2. Dunyo xalqlari an'anaviy turmush tarzi va oilaviy marosimlaridagi tabiat unsurlariga oid qarashlarning ekologik xususiyatlari

Har bir xalqning boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri uning marosimlari hisoblanadi. Marosim inson hayotida moddiy va ma'naviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy xodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.¹¹¹ Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

O'tgan XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e'tirof etila boshlandi. Ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlanib qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq etish masalasini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Etnograf T. Bayalievanning xabar berishicha, qadimda qirg'izlar orasida suv ruhlari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud bo'lgan. Bunga muvofiq, Tyan'shan' qirg'izlari har yili suv ruhlariga atab qurbonliklar qilganlar. Qurbonlikka atalgan hayvon suv bo'yida so'yilib, qoni suv bilan aralashib ketishiga harakat qilganlar. Ushbu marosim orqali odamlardan darg'azab bo'lgan suv parilari va ruhlarini g'azabini pasaytirishga harakat qilganlar. Agar bu ishlar amalga oshirilmasa, yil davomida biror-bir ko'ngilsiz hodisa ro'y beradi, deb hisoblaganlar¹¹².

Qirg'iz diniy marosimlari ichida o'ziga xos o'rinni ulardagi tabiat kul'ti (keng ma'noda, bu so'z tarkibiga astral kul't, duolar o'qish kiradi) egallagan. Ularning ba'zi birlari bilan tanishib chiqamiz. Bir muncha qadimgi bo'lib ulgurgan, hozirda deyarli unutilgan fikrdan biri osmon haqidagi fikrdir.

Osmon xudoligi –Tangri turklarda bosh o'rinda turmagan. Ammo, osmonga sig'inish, unga duolarni o'qish, unga qurbonliklar qilish turklargacha bo'lgan davrlarda ham masalan, xun, usunlarda hamda uzoq sharqgacha, deyarli Markaziy va SHarqiy Osiyoni maydonlarida tarqalgan. Xitoy manbalariga ko'ra, "Osmon kul'ti" shunday ko'p o'zgartirildi, keyinchalik bir so'z bilan aytganda "er kul'ti" ma'nosini anglatadigan bo'lib qolgan. Tosh yozuvlardagi manbalarga ko'ra, turklarda "Tangri" ma'nosi osmon xudoligidan ko'ra kengroq ma'no anglatgan. Bu ma'no burcha astral' fikrlarni jamlanmasi bo'lib, bir ma'noda "Butun koinot"

¹⁰⁹ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Поп тумани Тепакўрғон қишлоғи. 2010 йил.

¹¹⁰ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чортоқ тумани Ҳазратишоҳ қишлоғи. 2004 йил.

¹¹¹ Саримсоқов Б. Маросим фольклори //Ўзбек фольклори очерклар – Т: Фан, 1988. – Б. 152.

¹¹² Баялиева. Т. Пережитки магических представлений и их изживание у киргизов. // Древняя и раннесредневековая культура Киргизистана. – Фрунзе, 1967. – С. 126.

ma`nosida bo`lgan. Tangri xudoligi ma`nosida faqat osmonga emas, balki quyoshga (kun tangrisi), oyga (oy tangrisi), erga (er tangrisi) lariga ham ajratilgan¹¹³.

Etnografik manbalarga ko`ra, tangri qo`llasin deb nomlangan tashakkur ma`nosi ham bor, u qirg`izlarda “kuday jalgasin” (kuday - xudo) deyilgan. Qalmiqlarda “kyokyo tangri” tushunchasi ham bo`lib, u xuddi qirg`izlardagi “kuday” so`zi bilan bir ma`noni anglatgan¹¹⁴.

L. Potapov fikricha Otukan qadimgi tog` xrebtini nomi hisoblangan, lekin aslida terminni o`zi er xudoligi sifatida foydalanilgan. L. Potapovning fikricha, etnografik ma`lumotlarga tayangan holda, mazmun qadimgi ajdodlar tomonidan tog` va osmonga sig`inilgan hududlar bilan bog`liqdir. Otukan nafaqat qadimgi turklarda, balki mongollarda ham er xudoligi hisoblangan. Bu ma`lumotlar qadimgi turklarga tegishli bo`lgan run yozuvlarida keltirilgan¹¹⁵.

“Qirg`izlarni Xudolik to`g`risidagi tasavvurlari islomlashgan hamda noaniqroq bo`lsada ularda xakas va altaytlarning ibodatlarini belgilari saqlanib qolgan. Mana shu barcha magik harakatlarning asosida, erga oid bo`lib, ularni barchasi chorvadorlar va dehqonlarni xo`jalik ehtiyojlaridan, er tabiatining asosiy resurslarga bo`lgan talabdan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Qirg`izlarni an`analarida ham lekin er kul`ti bilan bog`liq personifikatsiya va tasvirlarni uchratmadik. CH. Valixanovning yozishicha: “olov, oy, yulduzlar ularni mohiyati qadrlashdir”¹¹⁶. Uning fikricha, qirg`izlarda hamdja qozoqlarda ham shomonlik haqida fikr bildirayotganda ulardagi yangi oy chiqishi bilan bohliq uch martalik ibodat qilish qirg`izlarga ham tegishlidir. F. Poyarkovni yozishicha: “Oyni ko`rgan har bir qirg`iz erkagi ham, ayoli ham tilak bildiradi”¹¹⁷. etnograf va filologlarning alohida fikricha, qirg`izlarni yulduzga, shamolga, momaqaldiroq va boshqa tabiatni baxtsiz hodisalariga alohida munosabatlari bor.

Tabiat iqlimini ham o`zgartirishga harakat qilishgan, ularni fikricha sog`iladigan qo`y oshqozonida bo`ladigan toshchadan foydalanganlar. Bunga ishonuvchanlik qadimgi turklar orasida ham keng tarqalgan”. Qirg`izlar orasida alohida odamlar bo`lib, ular jaychi deb atalgan, ular ob-havoni kichkina toshcha bilan o`zgartirishgan qodir hisoblangan. Ular o`zlari o`qiydigan duolari arab-forsiy tilida bo`lib, o`zlariga ham biroz tushunarli bo`lgan xolos. M. Bogdanovni fikricha, asosan qurg`oqchilik vaqtida yomg`ir chaqirish uchun ana shu duolardan foydalanishgan”.

“Ziyoratgohlar atrofidagi tozalik o`rab turgan ob`ektlari mikro biosferik qo`riqxonalar vazifasini o`taydi. Bu joylar tog`da yoki shaharda bo`lishidan qat`i nazar, hech kimni tegmasligi va buzmasligi kuchli kuzatuvda bo`ladi. SHunday ma`lumotlar borki, tabiatning mana shunday hurmatga loyiq hududida, qadimgi landshaftga oid o`simlik va hayvonlar saqlanib qolganligi uchun ham bu erlar mikrosferali qo`riqxonalar deyiladi. Bu muqaddas joylarni birlamchi tuzilishi va butunligini saqlab qolishni din talab etadi. Bu erlar avvalgi holati saqlanganiga qaramasdan ekologik va zamonaviy hisoblanadi. Bu sig`inadigan joylar ekologik tozalik etaloni hisoblanadi. Bu joylar atrof-muhitni tiklash uchun namuna bo`ladi”¹¹⁸.

“Muqaddas joylardagi qabristonlar odatiy sanitar gigienik normalarga javob bergan. Ularning joylashgan o`rni aholidan ma`lum bir uzoqlikda va havo yaxshi aylanadigan joyda bo`lishi kerak edi. Tuprog`i quruq va toshsiz bo`lishi kerak. Bunday ongli shartlar diniy uylar va tashkilotlarga ham ta`sir qilgan. Masalan, janubiy Farg`onaning Rishton tumanida joylashgan “Ilg`or boshqaruv madrasasi” uchun joy quyidagicha tanlangan ekan: “Go`sht bo`laklarini olib turli joylarga qo`yib chiqilgan, barcha joylarda issiqda tez aynigan faqat madrasa o`rnidagi go`sht uzoq va yaxshi saqlangan. SHu tufayli o`sha joy mahalliy aholi tomonidan qulay va yaxshi deb tan olingan”¹¹⁹.

¹¹³ Абрамзон С.М. Кыргызы и их ... – С. 290.

¹¹⁴ Абрамзон С.М. Кыргызы и их – С. 291.

¹¹⁵ Абрамзон С.М. Кыргызы и их .. – С. 293.

¹¹⁶ Валиханов Ч. Ч. Избранные труды.... – С. 282.

¹¹⁷ Поярков Ф. Кыргызы // ТВ. — 1915. – №23.

¹¹⁸ Огудин В. Л. Страна Фергана (эколого–религиоведческое исследование). – М., 2002. – С. 74.

¹¹⁹ Огудин В. Л. Страна Фергана.... – С. 92.

“Nafaqat noto`g`ri munosabat balki muqaddas bo`lmagan joylarga bo`lgan noto`g`ri parvarishlar ham yovuz ruhlardan tomonidan jazolangan. Ular faqatgina odamlarni gunoh qilishini, ularni yomonlik qilishini kutib turishgina xolos. Masalan, devlar odamlar kam yuradigan, kichik yo`l chetidagi yoriqlarda yashashni yaxshi ko`rishgan. Ba`zi bir odamlar u yo`llardan yurgandan so`ng ularni oyog`ida og`riqlar paydo bo`lgan. Tun esa yovuz kuchlar vaqti hisoblangan. Qorong`ilikda turgan albatta har vaqt musulmonlarni diniy kalimalarini yodida takrorlab turishi kerak. Bu kalimalar yovuz devlarni qo`rqitadi va ularni ta`sirini yo`qotadi. Tunda uydan chiqish juda ham xavfli hisoblangan. (ayniqsa noqulay vaqtda) Bu joyda gapirmasdan, kalima keltirmasdan birinchi marta borgan joyida yursa, bu erda dev unga ignasini ya`ni kasallikni sanchib oladi. Hovli oldilarida chuqurliklarida doim suvlar to`planib qoldirilgan. Odamlarni bosganda devlarni qo`rqitish mumkin deb o`ylashgan. Mana shu barcha fikrlarni ostida katta ma`nolar yotadi. Nima bo`lgan taqdirda ham maqsad bitta bo`lgan, ya`ni atrofdagi olamni toza va musaffo saqlash bo`lgan. Agar bu qoidalar buzilgan taqdirda devlar kuchlari kuchayib, odamlar kasalliklarga chalina boshlagan”¹²⁰.

“O`troq dehqonlar, qadimdan quyi tog` tabiatida yashayotganlar dehqon yashash joylarini toza ichimlik suviga yaqin joylarga buloq, daryo, quduqlarga, lalmikor va polizbop erlarga uy quradilar. YA`ni ular topgan joylarda hayvon boqish, ozuqa mahsulotlarini etishtirishga qulay bo`ladi. Undan tashqari aholi guruhlari bir-biri bilan ko`chib yuruvchi bozorlar orqali aloqada bo`lgan”¹²¹.

O`z o`rnida shuni qayd etish lozimki, dunyodagi ilk diniy e`tiqodlarning aksariyatida ruhlarning mavjudligiga ishonish, tabiatda bor jamiki unsurlar: osmon, er, suv, quyosh, oy, yomg`ir, momaqaldiroq, shamol, tog`, daryo, o`rmon, hayvon, o`simlik, tosh, daraxt va hokazolarda ong va faoliyat yuritish qobiliyati borligi hamda ularda g`ayritabiyy qudrat borligiga ishonchni bildirgan. SHu asosda, ularga qurbonliklar keltirish, sig`inish va marosimlar o`tkazish lozim, deb hisoblaganlar. Hattoki, turli metallarning urilganda tovush chiqarishini, unda yashovchi ruhlarning ovozi, deb tasavvur qilganlar. SHimoliy Afrikada joylashgan Tunisda sarchashma bo`yida dumaloq toshlardan konus terilgan bo`lib, ichida suyak bo`laklari va turli ashyolar topilgan. Arxeologlarning taxmini ko`ra, bu –sarchashma ruhiga hadya. Ruhlarning boshqa tana yoki ashyolarga o`tish qobiliyatiga ishonch Osiyoda keng tarqalgan bo`lib, mahalliy aholining falsafasiga ko`ra, 2100 ta o`simlikning osmonda o`z himoyachisi-qo`riqchisi mavjud bo`lgan¹²². O`simliklarda ham ruh borligiga ishonch Janubi–SHarqiy Osiyoda buddizm ta`sirida yo`qolib ketgan. Buddizm risolalarida yozilishicha, qadimgi odamlar daraxtlarning joni bor, deb ularni kesishmagan, aslida esa, ulardan foydalanish mumkin, deb hisoblaganlar¹²³.

Boshqa xalqlar singari turkiylar ham tabiatni, uning ajralmas qismlaridan biri bo`lgan daraxt va o`simliklarni tangri yoxud undan ajralib chiqqan bir parcha deb o`ylaydilar. Jumladan, turk tarixchisi Murot O`rozning yozishicha, Oltoy turklari qayin daraxtiga sig`inganlar, uni boshqa daraxtlardan ilohiyroq deb qabul qilganlar va unga hurmat ramzi schifatida qurbonliklar keltirganlar¹²⁴.

O`zbek faylsasufi E. Berezikovning e`tirof etishicha, Oltoy tabiblari bemorlarni davolashga urinish chog`ida doimo o`z yonlarida oq qayin po`stlog`i va uning bir qismini olib yurganlar. CHunki, ularning tasavvuriga ko`ra, oq qayin daraxti buyuk Tangri – Ulgen tomonidan kichik tangri Umoyga ko`kdan yuborilgan. SHuning uchun oltoyliklar marosimlar paytida ularning ruhi qo`llaydi, deb hisoblaganlar¹²⁵.

Inson hayoti mohiyatiga ko`ra, o`z egizak daraxti hayoti bilan bog`liq hisoblangan. Boz ustiga, turkiylar orasida har bir urug`ning qadimda o`ziga xos shajara daraxti mavjud bo`lgan. Bu

¹²⁰ Огудин В. Л. Страна Фергана (эколого–религиоведческое исследование). – М.: 2002. – С. 92.

¹²¹ Огудин В. Л. Страна Фергана (эколого–религиоведческое исследование). – М.: 2002. – С. 91.

¹²² Бу ҳақда қаранг: Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий этиқодлари тарихи. – Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. – Б. 43.

¹²³ Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 48.

¹²⁴ Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. – №9. – Б. 11.

¹²⁵ Бerezиков Е. Рухлар ўйинига таширф // Сирли олам. – 1992. – №1. – Б. 10–12.

daraxt shu urug' a`zolari uchun muqaddas hisoblangan va unga hurmat bajo keltirganlar. Bunday qarashlar va urf-odatlar o`zbek xalqi an`anaviy turmush tarzida ham uchrab turadi. Jumladan, Farg'ona vodiysi o`zbeklari qadimdan o`rik, yong'oq, tut, jiyda, anjir, anor, behi va uzum kabi mevali daraxtlarning o`ziga xos bo`lgan "ruhlari" mavjudligiga ishonib keladilar. Masalan, Namangan viloyati aholisi orasida shunday bir irim mavjud. YAngi tug'ilgan chaqaloq yotgan uy "chillali" hisoblanib, bu uyga shomdan keyin hech kim kiritilmagan. CHunki, mahalliy aholining tasavvurlariga qaraganda, shomdan keyin barcha jinlar va shaytonlar sayrga chiqadilar va bu paytda ko`chada yurgan har qanday odamga ilashadilar. SHuning uchun shomdan keyin uyiga kelgan kishi biror-bir mevali daraxtni uch marta quchoqlab, keyin kirishi mumkin. Ana shundagina unga ilashgan barcha yovuz ruhlarni daraxt o`zi bilan birga olib qolar ekan¹²⁶.

Turkiyshunos L. Potapovning fikriga qaraganda, Abakan turklari ham to`rt muqaddas unsurlardan biri bo`lgan qayin daraxti yonida o`zlarining shomonlikka oid marosimlarini o`tkazganlar. Bu marosimlar paytida bir tepaga chiqib, ildizlari butun holda erdan qazib olingan qayin daraxtini marosim o`tkazilayotgan joyga ekib, jonliq so`yilgandan keyin ushbu daraxt atrofida uch marta aylanib, qurbonlik etlarini olovda toblaganlar¹²⁷. Turk parixonlari o`z duolarida qayin daraxti sharafiga: "Oltin yaproqli, etmish yaproqli muborak qayin daraxti" kabi ta`birlarni ishlatganlar¹²⁸.

Bu iboralar zamirida daraxtga bo`lgan ilohiy izzat-hurmat aks etgan. Turkiy xalqlarda qayindan tashqari, boshqa daraxtlarga nisbatan ham ilohiy tushuncha va munosabat mavjud bo`lib kelgan. Jumladan, turk tarixchisi Usmon Turonning yozishicha, qayrag'och va sarv qadimdan turkiylarning muqaddas daraxtlari sirasiga kirgan. Qirg'izlar oq terakni, yoqutlar qora qayrag'ochni muqaddas deb bilganlar. Ayollar sarv shoxlaridan olov yoqib, yovuz ruhlarni haydash niyatida xonadonlarining to`rt burchagiga tutatib chiqqanlar¹²⁹.

Turkiy xalqlardagi tabiat unsurlari haqidagi tasavvurlar to`g`risida yunon tarixchisi Zeofilaktos: "Turklar tuproq, suv, olov va havo (to`rt unsur)ni muqaddas hisoblab, er va ko`kning xoliqi bo`lgan yagona Tangriga topinishgan hamda unga ot, sigir va qo`y qurbonlik qilishgan, ularning kelajakdan xabar beruvchi koxin (qom-shaman)lari bo`lgan"¹³⁰, deb yozadi.

Umuman olganda, xalqimiz an`anaviy turmush-tarzida tabiat unsurlariga oid qarashlar va marosimlarda qadimiy diniy e`tiqodlar va ular bilan bog`liq urf-odatlarining aksariyatining asl mohiyati va mazmuni unutilgan bo`lsada, islomiy ko`rinish olgan holda yoki islomiy qarashlar bilan o`zaro uyg'unlashib odat, an`ana tarzida yashab kelayotganligi tasdiqlangan. Bu esa bir tomondan xalqimizning milliy urf-odatlari va an`analari uzoq tarixiy asosga ega ekanligidan dalolat bersa, boshqa tomondan diniy bag`rikenglik (tolerantlik), an`analarga va qadriyatlariga sodiqlik kabi xususiyatlarning aynan o`zbek xalqi etnomilliy psixologiyasiga xos bo`lgan xususiyat ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Farg'ona vodiysining alohida geografik joylashish kuchidan kelib chiqib, vodiy hududidan shartli demarkatsion chiziq o`tgan. Bu chiziq tog' vodiylaridagi ko`chmanchilar dunyosini o`troq dehqonlar hamda tog'lik oazislar dunyosidan ajratib turgan. Bu erda joylashgan

¹²⁶ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Янгиқўрғон тумани Калишоҳ қишлоғи. 2011 йил.

¹²⁷ Потапов Л. П. Алтайский шаманизм. – Л.: Наука, 1991. – С. 151.

¹²⁸ Юқоридаги асар..... – С. 153.

¹²⁹ Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. – №9. – Б. 14.

¹³⁰ Геродот. История. – Л.: Наука, 1972. – С. 96.

maydonlar orqali uzoq vaqtlar davomida (eramizdan oldingi II ming yillik oxirlaridan eramizning II ming yillik oxirlariga) juda ham turli xil millatlar yashab o'tishgan va ular O'rta Osiyo taqdiriga ma'lum bir ma'noda ta'sir qilishgan. SHu tufayli O'rta SHarq va Markaziy Osiyo dinlariga tegishli chuqur va yuzaki belgilar va qoldiqlarni Farg'ona vodiysida uchratish mumkin.

Hududiy turli masshtabli komplekslar borligi, ularni sakralizatsiyaning turli bosqichli zonalarida shakllanganligi, atrofidagi muqaddas ob'ektlari borligi asosida hududlarni yangicha uslubda tumanlarga bo'linishi shakllandi. Uning asosida aholi guruhlarini muqaddas qadimgi markazlar atrofimda to'planganlari yotadi. Har bir kompleksga tabiat faktorlari va resurslarining individual naborlari mos keladi, ular xo'jalik tuzilishi va aholi soniga ta'sir qiladi, ularni ehtiyoji darajasida oziqlanish mahsulotlari bilan ta'minlash qobiliyatiga ega. Qadimgi komplekslar chegaralari jamiyatni tarixiy shakllanishni uzoq vaqt davomida sezilarli ravishda o'zgartirgan, xo'jalikni boshqarish tartiblari mahalliy ekologik shartlar va sharoitlardan kelib chiqib tuzilgan. CHegaralarni buzilishi so'nggi 1-2 yuz yilliklardan keiyin boshlanib, sovet davrlariga kelib, savdo-sanoat zonalarini rivojlanishi bilan bog'liq ravishda chegaralarni buzilishi intensiv ravishda kuchaygan. Aholining ko'plab guruhlarini ko'chishi, migratsiyasi tartibsiz yangi uylar qurilishi va tartibsiz o'rnatishlarga olib keldi. Keyinchalik esa odamlar muqaddas joylarga joylashmasdan, u erlarni adminstratsiyani markaziy ob'ektlari deb hisoblashdi. Kelgusiga nazar tashlasak, tabiatni ahamiyati va namoyon bo'lishini qadimgi strukturalarini saqlanib qolgan qismlarini izlab o'rganish diniy-ekologik tushunchalar hajmiga bog'liqdir degan ma'no bor. Bularni barchasi milliy madaniyatni saqlanib qolgan marosimlarini monitoring qilishni shakllantirish uchun asos bo'lib, imkonini beradi. Mana shu muqaddas joylar o'z o'rniga ega bo'lib, ular "kichik Vatan" deb hisobga olish mumkin va ular bunga loyiqdir.

Bugungi kunda ekologik muammolar umumbashariy muammoga aylandi. Ajdodlarimiz ming yillar mobaynida er, suv, havo, olov va boshqa tabiat in'omlarini munosib ravishda e'zozlab kelganlar. Afsuski, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi qadimiy an'analari unutilib yuborildi. SHu sababli xalqimizning qadimiy madaniyatini, tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan an'ana va marosimlarini bugungi kunda chuqurroq o'rganish, uning mohiyatini keng ommaga tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda xalqimizning tabiatni asrab-avaylash haqidagi qarashlari, inson va tabiatning uyg'un munosabatlarini o'zida aks ettirgan qadimiy diniy qadriyatlarimizni maxsus tadqiq qilish va keng ommaga etkazish zarur.

"Rivojlangan sari aholining ekologik tushunchasi (fikrlashi, ongi) rivojlanishi haqidagi savol paydo bo'ldi va asosan o'sib kelayotgan avlodlarda paydo bo'lib, real asosga ega emasdek tuyuldi. Bu shu darajada tushunarsiz ediki, qanday qilib zamonaviy ekologik ilm (fan) asosida ateistizm bo'la turib, shuning uchun odamzod ruhiy sferasiga ta'sir qila olmasdan turib, aholi guruhlarini ko'p qismi rozi bo'lmagan qonunlar bilan bog'liq chuqur hayotni shakllantirish mumkin. ekologoetnik qonun qoidalar adminstrativ choralarga asoslanishga yoki ba'zi tabiatni himoya qiluvchi tashkilotlarni ekstremistik harakatlarini qo'llab-quvvatlay olmaydi. Ruhiy printsiplarni tabiat bilan o'zaro munosabatlarini tarqalishi va o'rganish zamonaviy shakllangan jamiyat yoshlarini ekologik ongi (fikrlashi, dunyoqarashini) rivojlanishi uchun kerakdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

Rasmiy adabiyotlar ro'yxati:

- I.1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.–325 b.
- I.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarori // Xalq so'zi. 1998 yil 28 iyul'.
- I.3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Tanlangan asarlar. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 132–155.
- I.4. Karimov I. A. YUksak ma'naviyat–engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev U. S. Farg'ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar. – T.: YAngi asr avlodi, 2005. – 216 b.
2. Agadjanov S. G. Oguzskie plemena Sredney Azii IX – XIII vv. // Strani i narodi Vostoka. – M.: Nauka, 1971. – Vip 10. – S. 181-184.
3. Amanaliev B. Doislamskie verovaniya kirgizov // Religiya, svobodomislie, ateizm. – Frunze.: Ilim, 1967. – S. 18–30.
4. Amanturlin SH. Perejitki animizma, shomonstva, islama i ateisticheskaya rabota. – Alma-Ata., 1977. – 134 s.
5. Ashirov A. A. “Avesto”dan meros marosimlar. – T.: Meros, 2001. – 31 b.
6. Ashirov A. A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 275 b.
7. Basilov V. N. Kul't svyatix v islame. – M.: Misl', 1970. – 144 s.
8. Basilov V. N. Izbranniki duxov. – M.: Politizdat, 1984. – 208 s.
9. Bayaliev T. L. Doislamskie verovaniya i ix perejitki u kirgizov. – Frunze: Ilim, 1972. – 168 s.
10. Bertel's E. e. Izbrannie trudi. Sufizm i sufiyskaya literatura. – M.: Nauka, 1967. – 523 s.
11. Bichurin N. YA. (Iakinf). Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. – M–L.: Nauka, 1950. T. 1. –312 s.
12. Gel' V. Vostochnaya meditsina // Pravda Vostoka. 1927 g 26 avgust.
13. Gerodot. Istoriya v devyatix knigax. – L.: Nauka, 1972. – 600 s.
14. Gorshunova O. V. Uzbekskaya jenshina: Sotsialniy status, sem'ya, religiya (po materialam Ferganskoy dolini). – M.: Nauka, 2006. – 360 s.
15. Davlatboev T. Avliyolarga sig'inish va uning zararlari. –T.: Bilim, 1979. – 24 b.
16. Djabbarov I., Dresvyanskaya G. Duxi, svyatie, bogi Sredney Azii. – T.: O`zbekiston, 1993. – 223 s.
17. Domusul'manskie verovaniya i obryadi v Sredney Azii. – M.: Nauka, 1975. –338 s.
18. Drevnie obryadi verovaniya i kul'ti narodov Sredney Azii. – M.: Nauka, 1986. – 206 s.
19. Jabbor eshonqul. Fol'klor: Obraz va talqin. – Qarshi.: Nasaf, 1999. – 176 b.
20. Jabborov I. Xudolar, avliyolar va odamlar. – T.: YOsh gvardiya, 1985. –144 b.
21. Jabborov I. O`zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O`qituvchi, 1994. – 312 b.
22. Jabborov I. O`zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O`qituvchi, 2003. – 186 b.
23. Jo`raev U. T. Dunyo dinlari tarixi. – T.: SHarq, 1998. – 176 b.
24. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. – T.: O`zbekiston, 1990. – 250 b.
25. Islom. entsiklopediya. – T.: O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2004. –319 b.
26. Karomatov H. O`zbekistonda moziy e`tiqodlari tarixi. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2008. – 663 b.
27. Kerimov G. M. SHariat i ego sotsial'naya sushnost'. – M.: Nauka, 1978. – 223 s.
28. Kosven M. O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. – T.: Fan, 1990. –241 b.
29. Mahmud Sattor. O`zbek udumlari. – T.: Fan, 1993. – 240 b.
30. Mingboeva D. Timsollar tilsimi. – T.: YAngi asr avlodi, 2007. – 179 b.
31. Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherki bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani. – Kazan': Universitet, 1886. – 203 s.
32. Ogudin V. L. Strana Fergana. – M.: Nauka, 2002. – 323 s.
33. Sarimsoqov B. O`zbek marosim fol'klori. – T.: Fan, 1986. – 213 b.
34. Snesev G. P. Relikti domusul'manskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – 336 s.
35. Snesev G. P. Pod nebom Xorezma. – M.: Misl', 1973. – 160 s.
36. Sulaymonova F. SHarq va G'arb. – T.: O`zbekiston, 1997. – 415 b.
37. Temurova S. Xotin-qizlar orasidagi diniy sarqit va irim-chirimlarga qarshi kurash. – T.: Fan, 1959. – 32 b.
38. Tolstov S. P. Drevniy Xorezm. – M.: MGU, 1948. – 351 s.

39. Xolmurodov B. R. SHomonlik e`tiqodida olov talqini // Tarix tilga kirganda.. Davriy to`plam. – Namangan., 2009. – №3. – B. 100–101.
40. Frezer Dj. Zolotaya vetv'. – M.: Nauka, 1986. – 703 s.
41. SHaniyazov K. SH. Uzbeki-karluki. – T.: Fan, 1964. – 195 s.
42. SHaniyazov K.SH. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – T.: Fan, 1974. – 342 s.
43. SHonazarov R. “Muqaddas”lashtirilgan o`simliklar va fan. – T.: Fan, 1977. – 60 b.
44. O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi. – T.: O`ZME, 2002. T. 4. – 704 b.

IV. Davriy matbuot nashrlari:

1. Abashin S. N. Islam i kul`t svyatix v Sredney Azii // etnograficheskie obozrenie. – 2001. – № 3. – S. 128–132.
2. Bo`riev O. CHilla nima // Saodat. – 1993. – №12. – B. 24–26.
3. Go`zalov F. Suvning hayotbaxsh sehri // YOshlik. – 1990. – №1. – B. 75–76.
4. Jalilov I. “Sust xotin” yomg`ir chaqirish marosimi // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – 2009. – №2. – B. 79–86.
5. Jahon ilmi taxsiri tarixidan // Qalb ko`zi, 1997 yil, 2 iyul`.
6. Jumanazarov U. Suvga sig`inishga doir ayrim qaydlar // O`zbek tili va adabiyoti. – 1990. – № 4. – B. 54–58.
7. Ishoqov M. M., Sulaymanov R. X. Zaratushtraning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar // O`zbekiston tarixi. – 1999. – № 1. – B. 45–54.
8. Litvinskiy B. A. Zerkalo v verovaniyax drevnix fergantsev // Sovetskaya etnografiya. – 1964. – № 3. – S. 97–104.
9. Murot O`roz. Turk asotirlari // Sirli olam. – 1994. – № 3. – B. 19–21.
10. Ro`zieva M. Ranglar haqidagi xalq qarashlari // O`zbek tili va adabiyoti. – 2008. – № 5. – B. 46–49.
11. Tog`aeva D. Ins-jinslar haqidagi o`zbek og`zaki hikoyalarning obrazlar sistemasi // O`zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 6. – B. 44–47.
12. Xolmurodov B. R. O`zbek xalqining an`anaviy dunyoqarashi va milliy qadriyatlari tizimida suv // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – 2010. – №2. – B. 129–133.
13. Qoraboev U. Borliqni anglash yo`lida paydo bo`lgan urf-odatlar // Moziydan sado. – 2003. – № 1. – B. 8–14.
14. Qo`ng`irot H. Tog` elining tabobati // YOshlik. – 2007. – № 6. – B. 38–40.